BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 29-noyabr, №48 (3110)



4-5 IRODA TOBLANDI, ISHONCH ORTDI

6-7 “MEN G‘OLIB!”DA ENG ILG‘ORLAR BELLASHDI

8 KELAJAKKA ISHONCH UYG‘ONSA...

14 TILIMIZNING OLMOS JILOLARI

17 SARHAD SADOSI

SERGAKMIZ VATANNING SARHADLARIDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb muammolari va istiqbollari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.









HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy tadqiqot instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan konferensiyada Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, ularning mutasaddi rahbarlari, soha mutaxassislari ishtirok etib, mamlakatimiz mudofaasi va xavfsizligini ta’minlashda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati, uning bugungi holati, mavjud muammolar va ularning yechimi, yetakchi xorijiy davlatlar tajribasi, yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mexanizmlari bo‘yicha aniq takliflar muhokama qilindi.

Tadbirni Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev ochib berar ekan, vatanparvar yoshlar mamlakatimizning har bir jabhasida suv va havodek zarurligi, ayniqsa milliy armiyamiz saflarida mard va sadoqatli o‘g‘lonlarni tarbiyalash masalasi kun sayin dolzarblashib borayotgani, bu borada vazirlik tizimida qator ijobiy natijalarga erishilayotganini ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, konferensiyada so‘z olganlar yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalash borasidagi tizimli takliflarni bildirib o‘tishdi.

“Mamlakatimiz mudofaasi va xavfsizligini ta’minlashda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati”, “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bugungi holati”, “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yetakchi xorijiy davlatlar tajribasi” kabi ko‘plab ma’ruzalardagi tahlillardan ayon bo‘ldiki, vatanparvarlik o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, u o‘zlikni anglash, Vatanni, xalqni sevishdan boshlanadi. Inson o‘z tarixi va qahramonlarini chuqur anglamasdan, xalqqa, Vatanga muhabbat qo‘ymasdan vatanparvar bo‘lolmaydi.

Shuningdek, muloqotlarda jadidlar masalasiga ham alohida urg‘u berilib, bu borada Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidchilikning o‘rni” mavzusida jadidlar masalasiga urg‘u berdi.

Tahliliy mulohazalardan ayonlashadiki, shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo‘shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g‘alaba qozongan. Bu, albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida qo‘llagan taktika va strategiyalari, qolaversa, sarkardalarning o‘z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlik, jangovar ruhni singdira olgani bilan ham ahamiyatlidir.

Mavzuga hamohang tarzda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida: *“Men istardimki, har bir o‘zbek askari va ofitseri qalbida Alpomish, Shiroq, Farhod, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qahramonlarimiz ruhi tug‘yon urishi kerak”* degan so‘zlarini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.





Konferensiyada mutasaddi shaxslar va soha mutaxassislari tomonidan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tizimli shakllantirish bo‘yicha bildirilgan ma’lumotlar, muhokamalar yuzasidan qayd etilgan takliflar, albatta, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yanada shakllanishiga samarali xizmat qiladi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Bosh qomusimiz 32 yoshda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 32 yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, Asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish ko‘rsatilgan.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi jarayoni hamda kiritilgan yangi o‘zgarishlar mazmun-mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan **referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi**, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo‘lmish parlament a’zolari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimiz Asosiy qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida to‘g‘ridan to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o‘laroq, uning yangi tahririning asosiy g‘oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash, **ilgari mavjud bo‘lgan “davlat-jamiyat-shaxs” paradigmasini yangi: “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat**.

Davlatimiz rahbari ta’rifiga ko‘ra, inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. **Ya’ni dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud**.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston – inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; “odamlar tashvishi bilan yashash”, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi **“Inson sha’ni va qadr-qimmati uchun”** tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Otabek JUMAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy sudining sudyasi

Huquqiy poydevor



RIVOJLANISH VA YANGILANISHNING ASOSI

Har bir mamlakat o‘zining yagona va noyob taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgani kabi, uning huquqiy asosi hisoblangan Konstitutsiyasi ham o‘ziga xos bo‘ladi. Konstitutsiya – bu davlatning temir qonuni bo‘lib, u mamlakatning butun ijtimoiy-siyosiy tizimining fundamental qoidalarini belgilaydi. U mamlakatning siyosiy tuzilmasini, iqtisodiy asoslarini, jamiyatning ijtimoiy qatlamlanishini aniq tartibga soladi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlaydi hamda davlat boshqaruvi organlarining tashkiliy tuzilishi va ularning vakolatlari doirasini belgilab beradi.

Davlat suverenitetining eng muhim belgisi va huquqiy poydevorining asosi – Konstitutsiya oddiy qonunlardan farq qilib, barcha huquqiy normalarning bosh manbai va asosiy tamoyillarni o‘zida mujassam etgan hujjat hisoblanadi. U jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amal qiladigan eng yuksak huquqiy standartlarni belgilaydi.

Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etib, fuqarolarning teng huquqliligini, shaxsiy daxlsizligini, so‘z, vijdon va diniy e’tiqod erkinligini kafolatlaydi. Bu hujjat mamlakatning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va umuminsoniy tamoyillar asosida shakllangan.

O‘zbekistonda mustaqillik yo‘lida muhim qadam – davlatning birinchi Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilindi. Bu hujjat mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi.

Konstitutsiya tayyorgarligi 1990-yilda boshlanib, keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirildi. Maxsus komissiya ikki yil davomida loyiha ustida tinimsiz mehnat qildi. Turli soha mutaxassislari, olimlar va oddiy fuqarolar birga ish olib bordilar.

Keng muhokamalar natijasida takomillashtirilgan Konstitutsiya mamlakatning yangi taraqqiyot yo‘nalishini belgilab berdi. 8-dekabr O‘zbekistonda Konstitutsiya kuni sifatida nishonlanadi.

Ta’kidlash joizki, 2023-yilning aprel oyida O‘zbekistonda Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar bo‘yicha tarixiy referendum bo‘lib o‘tdi, bu mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham diqqatni tortdi. O‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Bunday yuqori darajadagi ishtirok etish va qo‘llab-quvvatlash jamiyat o‘zgarishlar jarayonida faol qatnashayotganini va modernizatsiya yo‘lini qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini ko‘rsatdi. Bu referendum yangi davrning boshlanishi, unda O‘zbekiston yanada ochiqroq bo‘lishga va fuqarolar hayotini yaxshilashga intilayotganining ramzi bo‘ldi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi demokratik yangilanishga qilingan katta qadamdir. U mamlakatning o‘z aholisi va xalqaro jamoatchilikning talablarini inobatga olgan holda o‘zgarishlarga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiya faqat yuridik hujjat bo‘lib qolmasdan, o‘zgarishlar ramziga aylandi. Bu konstitutsiyaviy o‘zgarishlarning asosini quyidagi qadriyatlar tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin, jumladan, mamlakat mustaqilligini saqlash va yanada mustahkamlash, xalqning farovonligi va manfaatlariga qaratilgan islohotlarni davom ettirish, qonun va adolat ustuvorligi, odamlarga e’tibor va g‘amxo‘rlikdir.

O‘zbekiston yangi Konstitutsiyasi mamlakatda keng ko‘lamli islohotlarni davom ettirishga, O‘zbekistonning hozirgi va kelajak avlod fuqarolarining manfaatlari uchun davlat va jamiyatning rivojlanishiga mustahkam asos yaratishda xizmat qilmoqda.

Orif BOYQUVATOV,
Adliya vazirligi mas’ul xodimi





IRODA TOBLANDI,

…Adir bo‘ylab joylashuv nuqtasi tomon borar ekanmiz, kuzning so‘nggi kunlaridagi iliq taft dimoqqa urildi. Qir-adirdagi tillarang xazonrezgi orasida dam-badam uchraydigan yashil o‘tlarning shijoati kishi ruhiyatiga qat’iyat bag‘ishlaydi.



Uzoq kengliklarga tutashib ketgan “Kattaqo‘rg‘on” dala-o‘quv maydoni o‘rtasida harbiy xizmatchilar artilleriya qurollarini shay holatga keltirmoqda. Goh-gohida shamolning g‘uvullashi quloqqa chalinmasa, atrofda sokinlik hukm suradi. O‘z ishining ustalari oldida nafaqat shartli dushman, balki tabiatning murosasiz injiqliklari ham turar edi.

Mashg‘ulot rahbarining ko‘rsatmalari asosida harbiy xizmatchilar belgilangan nuqtalarga joylashishga kirishar ekan, oldinda bizni artilleriya bo‘linmalarining navbatdagi muhim o‘quv mashg‘ulotlari kutar edi.

Qisqa vaqt ichida hududga yetib kelgan batareya asosiy o‘q otish pozitsiyalarini egalladi. Komandir nishonlargacha bo‘lgan masofani aniqlash va optik kuzatish moslamalariga tuzatishlar kiritishni boshladi. Shaxsiy tarkibning o‘ziga ajratilgan harbiy texnikalari shay holatga keltirilgan va “boshla” ishorasi bilan barcha birdek harakatlanishga tayyor.

Mashg‘ulotlar davomida o‘t ochish pozitsiyalarini muhandislik jihozlash, muhitga mos niqoblanish, nishon koordinatlarini tez sur’atda topish va uni yakson etish usullari bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi taktik qo‘llanmalar sinovdan o‘tkazib borildi. Kichik guruhlarga bo‘lingan harbiy xizmatchilardan tezkorlik va epchillik talab qilinadigan mashg‘ulotlar ofitserlar tomonidan kuzatib borildi. Shartli nishongacha bo‘lgan masofa kuzatuv uskunalari orqali aniqlanishi bilanoq, yig‘ilgan ma’lumotlar asosida nishonga qarata o‘t ochildi.

To‘plar stvolidan chiqayotgan snaryadlar o‘zidan olov, chang va kuchli ovoz qoldirgancha belgilangan nishon tomon uchdi. Ketma-ketlikda davom etgan o‘t ochish jarayoni 5-6 daqiqa ichida to‘xtatildi hamda uzoqni yaqin qiluvchi moslama yordamida nishonlar ko‘zdan kechirildi.







ISHONCH ORTDI





– Bugungi o‘tkazilayotgan dala-o‘quv mashg‘ulotlarimizda asosiy e’tiborni har bir harbiy xizmatchi bilan individual ishlashga qaratganmiz. Qolaversa, “Ustoz-shogird” an’anasiga sodiq qolgan holda, yosh harbiylarimizning nazariy bilimlarini amaliyotda toblash, ko‘nikma hosil bo‘lishi uchun tajribali ofitserlar bilan birgalikda harakatlar olib borilmoqda, – deydi mayor Doniyor Rahimov. – Bunday mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilarning moslashuvchanligini mustahkamlash bilan bir qatorda, jangovar harbiy texnikalardan mohirona foydalanish mahoratini oshiradi.

Shartli dushmanning asosiy kuchlari yakson etilgani aniqlangach, artilleriya nishonlarining koordinatalari qochishga urinayotgan dushman texnikalariga qaratildi. Masofa ancha olis bo‘lgani bois mutaxassislar koordinatalarni snaryad borib tushishi mumkin bo‘lgan vaqtni hisobga olgan holda harakatli obyektga yo‘naltirdi. Bitta snaryad va bitta nishon! Harakatdagi obyekt yo‘q qilindi.

Uzoqni yaqinlashtiruvchi moslama yordamida biror holat aniqlanmadi. So‘nggi xulosa aniq, nishon batamom yo‘q qilingan. Shundan so‘ng artilleriyadan o‘t ochish to‘xtatildi...

Uzoq kengliklarga tutashib ketgan “Kattaqo‘rg‘on” dala-o‘quv maydoniga yana sokinlik cho‘kdi.

– O‘ttiz ming metrgacha bo‘lgan masofada “Bitta snaryad – bitta nishon” shiori ostida nishonlar yakson etildi, – deydi kapitan Davron Temurov. – Bunday amaliy mashg‘ulotlar tajribamizni oshiradi. Vaziyat kezi kelganda, nafaqat jamoaviy, balki guruhimiz ham tezkor qarorlarni qabul qilishi kerakligini o‘rgatadi. Tezkor qarorlar murakkab vaziyatlarda nishonlarning yakson etilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi o‘quv mashg‘ulotida ham qo‘mondonlik punkti orqali berilgan topshiriqlarni a’lo darajada bajarishga harakat qildik. Bizning vazifamiz nishonni yo‘q qilish edi va biz buni uddaladik.

Jarayon yakunida divizion va batareyalarning hamkorlikdagi amaliy mashg‘ulotlari tahlili muhokama qilindi. Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish, qurol-aslaha, reaktiv qurilma va o‘ziyurar artilleriya texnikalarini samarali qo‘llash bo‘yicha yangi tajribalarni amaliyotga kiritish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Yuqori qo‘mondonlik tomonidan harbiy xizmatchilarning salohiyati, har vaqt yurt himoyasida hozirligi, artilleriya qurollarining jangovar shayligi yuqori baholandi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”







Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan Vatan himoyasida sobit va mard o‘g‘lonlarning kasbiy tayyorgarligi, chaqqonligi, ruhiy quvvati va abjirligi 25 ta yo‘nalish bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. “Chirchiq” dala-o‘quv maydonida bo‘lib o‘tgan ushbu musobaqa sog‘lom raqobat muhitini yaratib, jangovar shaylikni oshirish bilan birga mamlakat mudofaa qudratining yuksalishiga ham xizmat qilishi shubhasiz.





“MEN G‘OLIB!”DA

“Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burch!” g‘oyasi asosida o‘tkazilgan armiya o‘yinlarining tantanali ochilish marosimida ishtirok etgan Mudofaa vazirligining mas’ul ofitserlari, Qurolli Kuchlar faxriylari va mehmonlar musobaqa ishtirokchilariga omad tiladi.

Shundan so‘ng harbiy xizmatchilar safdoshlari bilan yelkama-yelka g‘oliblik sari odimlab, soniyaning bir ulushi uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Kuchli raqobat ruhi ostida kechgan bellashuv hakamlar tomonidan ishtirokchilarning doimiy shayligi, jangovar harakatlari va maxsus tadbirlarni olib borishdagi uyushqoqlik, berilgan vazifalarni sifatli bajarish, shartlarga tayyorgarlik darajasi, jismoniy va ruhiy holatiga alohida e’tibor qaratish orqali musobaqa g‘oliblari saralandi.

Musobaqaning tantanali taqdirlash marosimida ishtirokchilarning ota-onasi hamda yaqinlari ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratildi. Tadbir mehmonlari dastlab “Eng ilg‘or oshpaz” yo‘nalishida ishtirok etgan jamoalar tayyorlagan taomlar hamda bayramona bezatilgan dasturxondagi noz-ne’matlardan tanovul qilishdi. So‘ngra musobaqaning qolgan 24 yo‘nalishi bo‘yicha ko‘rgazmali chiqishlarni tomosha qilishdi.

Shundan so‘ng tantanali taqdirlash marosimi boshlandi. Unda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik va Faxriylar kengashi a’zolari, Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi vakillari, harbiy xizmatchilar, kursantlar va umumta’lim maktablari o‘quvchilari ishtirok etdi.

O‘tkazilgan musobaqa yakuniga ko‘ra, quyidagicha baholandi:

“Eng ilg‘or T-62 ekipaji” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Markaziy harbiy okrug va Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoalari;

2-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or T-72 ekipaji” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasi;

1-o‘rin: Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasi.

“BMP-2 ekipaji” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Janubiy operatsion qo‘mondonlik jamoasi;

2-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug hamda Sharqiy harbiy okrug jamoalari.

“Eng ilg‘or BTR-80 ekipaji” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or ZORT hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasi;

2-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or D-30 orudiya hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or hisobchi mutaxassis” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askarlar Javohir Isoqov va Behruz Allamurodov;

2-o‘rin: oddiy askar Muhammad Numonov;

1-o‘rin: oddiy askar Sirojiddin Muhammadiyev.

“Eng ilg‘or artilleriya topobog‘lovchi mutaxassisi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askarlar Asadbek Abduazimov va Doniyor O‘rolov;

2-o‘rin: oddiy askar Doston Qurbonov;

1-o‘rin: oddiy askar Asadbek Yo‘ldoshev.

“Eng ilg‘or artilleriya razvedka mutaxassisi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askarlar Nursulton Nazarboyev va Javohir Anvarov;

2-o‘rin: oddiy askar Niyatboy Juldoshev;

1-o‘rin: oddiy askar Muhammadrasul Abdurahimov.

“Eng ilg‘or minomyot hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasi;

1-o‘rin: Janubiy operatsion qo‘mondonlik jamoasi.

“Eng ilg‘or RPG-7 hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.











Bahrom ABDURAHIMOV

ENG ILG‘ORLAR BELLASHDI

“Eng ilg‘or pulemyotchi (PKM)” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askar Muhiddin Ortiqov;

2-o‘rin: oddiy askar Abdulaziz Jumaboyev;

1-o‘rin: oddiy askar Behruz Qo‘ldoshev.

“Eng ilg‘or pulemyotchi (RPK)” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askar Dilmuhammad Jo‘raboyev;

2-o‘rin: oddiy askar Nodirbek Hakimov;

1-o‘rin: oddiy askarlar Behruzbek Otamurodov va Sherzodjon Xalilov.

“Eng ilg‘or mergan” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askar Ozodbek Qahhorov;

2-o‘rin: oddiy askarlar Dilshodbek Najmiddinov va Umidjon Ro‘ziyev;

1-o‘rin: oddiy askarlar Sanjar Eshonqulov va Dilshodbek Murodov.

“Eng ilg‘or o‘qchi” nominatsiyasida:

3-o‘rin: oddiy askar Husanboy Akromov;

2-o‘rin: oddiy askar G‘iyosjon Fayzullayev;

1-o‘rin: oddiy askar Ikromjon Sobitjonov.

“Eng ilg‘or AGS-17 hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Janubiy operatsion qo‘mondonlik jamoasi;

2-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug va Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoalari.

“Eng ilg‘or faxriy qorovul” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askarlar Boboyor Xayrullayev va Sarvar Sobirov;

2-o‘rin: oddiy askar Shohjahon Mirzajonov;

1-o‘rin: oddiy askarlar Asilbek Xojiboyev va Bunyodbek Yuldoshev.

“Eng ilg‘or ZU-23-2 hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Toshkent harbiy okrugi jamoasi.

“Eng ilg‘or KZRK hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or aloqa ekipaji” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism jamoasi;

1-o‘rin: Toshkent harbiy okrugi jamoasi.

“Eng ilg‘or radiatsion, kimyoviy, biologik razvedka hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy harbiy okrug va Janubiy operatsion qo‘mondonlik jamoalari;

2-o‘rin: Markaziy harbiy okrug va Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoalari;

1-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or maxsus ishlov berish hisobi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Sharqiy va Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoalari;

2-o‘rin: Markaziy harbiy okrug va Janubiy operatsion qo‘mondonlik jamoalari;

1-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or haydovchi” nominatsiyasi:

3-o‘rin: oddiy askar Anvar Norqulov;

2-o‘rin: oddiy askarlar Habibulloh Hamrayev va Javlonbek Sotboldiyev;

1-o‘rin: oddiy askar Kamoliddin Jo‘rayev.

“Eng ilg‘or muhandislik razvedka dozori” nominatsiyasi:

3-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

2-o‘rin: Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug jamoasi.

“Eng ilg‘or oshpaz” nominatsiyasida:

3-o‘rin: Janubiy operatsion qo‘mondonlik va Sharqiy harbiy okrug jamoalari;

2-o‘rin: Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug va Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoalari;

1-o‘rin: Markaziy harbiy okrug va Toshkent harbiy okrugi jamoalari.

G‘olib va sovrindor jamoalar Mudofaa vazirligi diplomi, kubogi hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Tantanali marosimda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Qahramoni, senator Sodiqjon Turdiyev hamda O‘zbekiston xalq shoiri, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzaaliyev tadbir ishtirokchilarining kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyat tiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lib o‘tgan mazkur armiya o‘yinlari harbiy xizmatchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratib, jangovar shaylikni oshirish bilan birga mamlakat mudofaa qudratining yuksalishiga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



KELAJAKKA ISHONCH UYG‘ONSA...

Mamlakatimizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam tizim yaratilgan bo‘lib, bu, shubhasiz, zamon talablaridan kelib chiqqan holda aholi turmush farovonligining yanada oshishiga xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, 14-30 yosh oralig‘idagi yurtdoshlarimizning turli tashkilot va muassasalar, hokimiyat organlari hamda harbiy xizmatchilar tomonidan otaliqqa olinishi bilan ko‘plab amaliy natijalarga erishilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida istiqomat qiluvchi 24 ming nafardan ortiq 14–30 yosh oralig‘idagi yurtdoshlarimiz otaliqqa olingan. Yoshlar bilan ishlashda “og‘ir” toifaga kiritilgan, uyushmagan yoshlarning muammolarini hal etish, ishsiz yoshlar bandligini ta’minlash, muammolarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan.

Joriy yilning 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qurolli Kuchlar akademiyasiga 2024-yilda 24 000 nafar tarbiyasi og‘ir yoshni o‘qitish, kasb-hunar, chet tillarini o‘rgatish, sog‘lom hayotga qaytarish va bandligini ta’minlash vazifasi belgilangan edi. Akademiya tomonidan mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash uchun Yoshlar agentligi bilan hamkorlikda tarbiyasi og‘ir va jinoyatchilikka moyil yoshlar bilan ishlash chora-tadbirlar rejasi hamda “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlarining dasturi ishlab chiqildi. Joriy yilning mart oyidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarining har birida 9 nafardan, jami 27 nafar harbiy xizmatchidan iborat ishchi guruh o‘z faoliyatini boshladi. Dastlab, hududlarda otaliqqa olingan yoshlar bo‘yicha tashkil etilgan shtablar va ishchi guruh hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Hokimliklar bilan birgalikda “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlarining tashkiliy va moliyaviy masalalari hal etildi.

Dasturga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida umumiy 19 798 nafar tarbiyasi og‘ir va jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yosh ishtirokida turli tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, 1 368 nafar 14–17 yoshdagi o‘g‘il-qiz bilan yozgi ta’til mobaynida oromgohlarda “Vatanparvar yoshlar lageri”da, 2 219 nafar 18–30 yoshdagi xotin-qiz bilan Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyi va tuman madaniyat markazlarida, 16 192 nafar 18–30 yoshdagi o‘g‘il bola bilan harbiy qism, poligon va tuman markazlarida harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari tashkil etilib, ularni o‘qitish, kasbga yo‘naltirish, bandligini ta’minlash va sog‘lom hayotga qaytarishning asosiy mexanizmlari belgilandi.

Joriy yilning 25-noyabr holatiga ko‘ra, yuqorida nomlari qayd etilgan hududlar tumanlari kesimida jami 127 marotaba “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari tashkil etildi. Yig‘inlarda jami 25 360 nafar tarbiyasi og‘ir, jinoyatchilikka moyil yosh va migratsiyadan qaytgan yoshlar ishtirok etdi.

Yig‘inlar davomida yoshlarni qiynab kelayotgan muammolarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib, 2024-yil 25-noyabr holatiga ko‘ra, jami 6 788 nafar yoshning muammolari ijobiy hal etildi. Jumladan, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 190, Xorazm viloyatida 3 653 va Jizzax viloyatida 945 nafar yoshga amaliy yordam ko‘rsatildi. Jami 572 marotaba maqsadli tadbirlar tashkil etildi. Xususan, harbiy texnika va qurol-aslahalar ko‘rgazmasi, davlat arboblari, yozuvchi-shoirlar va faxriylar bilan uchrashuvlar, teatr namoyishlari, harbiy-sport musobaqalari, vatanparvarlik ruhidagi ko‘ngilochar hamda boshqa tadbirlar shular jumlasidandir. O‘quv yig‘inida ishtirok etgan yoshlar uch mahal issiq ovqat, o‘quv qurollari, harbiy kiyim-kechak, shaxsiy gigiyena vositalari, “Temur tuzuklari”, “O‘zbekiston tarixi” kitoblari hamda Mudofaa vazirligi ramzi tushirilgan sport kepkasi va futbolkasi bilan bepul ta’minlanib, birlamchi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy xizmatchilari hokimliklar va Yoshlar agentligining hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda keng ko‘lamli ezgu ishlarga hissa qo‘shib kelmoqda. Eng muhimi, olib borilayotgan harakatlar natijasida o‘n minglab yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi ta’minlanyapti. Qalblarida kelajakka ishonch uyg‘ongan yoshlar esa shu paytgacha ochilmagan qirralari bilan mamlakatimiz ravnaqiga imkoniyatlari darajasida hissa qo‘shishni boshlab yuborishdi. Kimdir bu vazifani bilimi, iqtidori bilan, yana kimdir esa tashabbuskorligi bilan, boshqalari esa davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibordan ilhomlangan holda sidqidildan bajarishga kirishdi. Quyida nomlari qayd etilgan ana shunday yoshlar boshqa minglab, millionlab tengdoshlarini o‘zlarining ortidan ergashtira oladi deya, ishonch bilan ayta olamiz.

Javohir Toshbekovga ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakili sifatida Sharof Rashidov tumanidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qish imkoniyati yaratib berildi. Javohir o‘zi ta’lim olayotgan bilim maskani robototexnika to‘garagi a’zosi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda milliy armiyamiz salohiyatini oshirish uchun ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqchi. Javohirning to‘garakdosh do‘stlari – Bunyod Isoqov, Azizbek Abdurasulov, Daler Toymurodov, Boburbek Osmonaliyev maktabda o‘tkazilgan “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘indan so‘ng Qurolli Kuchlar akademiyasida faoliyat olib borayotgan Ilmiy vzvodda xizmat qilish istagini bildirishdi. Viloyatda Javohirga o‘xshagan ming nafardan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillariga yordam ko‘rsatilgani e’tiborga molik. G‘allaorollik Shohrux Baratov *(tadbirkorlik uchun subsidiya krediti ajratilgan)* va shu tumanda istiqomat qiladigan Sarvinoz Rahmonqulova *(chet elda bepul o‘qishi uchun imkoniyat yaratib berilgan)* shular jumlasidandir.

23 yoshli Davlatmurod Qurbonovni “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inining haqiqiy kashfiyoti, desak, adashmaymiz. Chunki Davlatmurod Paxtakor tumanida o‘tkazilgan yig‘in tufayli o‘z iqtidorini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Gap shundaki, Jizzax davlat pedagogika universitetiga 2 marta o‘qishga kirib, oilaviy sharoiti tufayli tahsilni davom ettira olmagan. Davlatmurodning qo‘lidan rasm chizish, haykaltaroshlik, 3D modelida ishlash, YouTube tarmog‘ida kontent-meykerlik qilish keladi. Paxtakor tumanining Buyuk ipak yo‘li mahallasida istiqomat qilib kelayotgan bu yigit ota-onasidan erta ayrilgan. Qurolli Kuchlar akademiyasi ofitserlari Nodirbek Dadaboyev, Zohidjon Toshqulov yordami bilan Davlatmurod “Jasorat maktabi” yig‘inida IT yo‘nalishida boshlang‘ich bilimlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘ldi. Bundan tashqari tuman hokimligi va Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi ko‘magida Davlatmurod Qurbonov universitetdagi o‘qishini davom ettirishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida otaliqqa olingan yoshlarga 2024-yil hisobi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda amaliy yordam ko‘rsatildi.

Ishga joylashganlar – 799 nafar;

Tadbirkorlik uchun kredit ajratilganlar – 661 nafar;

Ekin maydoni ajratilganlar – 1 256 nafar;

Asbob-uskunalar berildi – 291 nafar;

Kasb-hunarga o‘qitilganlar – 346 nafar;

SCHR badali qoplanganlar – 41 nafar;

Fan va chet tillariga o‘qitilganlar – 87 nafar;

Davolatilganlar – 127 nafar;

Kontrakt to‘lovi to‘langanlar – 146 nafar;

Toifadan chiqarilganlar – 528 nafar;

Bir martalik moddiy yordam olganlar – 1 007 nafar.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”





OILAGA SADOQAT – VATANGA SADOQAT DEMAK

Davlatimiz tomonidan yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar doirasi O‘zbekistonning chekka hududlarini ham qamrab olganligi hech kimga sir emas. Bu jarayonda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan ilg‘or, tashabbuskor, g‘ayratli yoshlar yetakchilarining o‘rni katta. Bolaligidan ana shunday xislatlarga ega bo‘lgan kapitan Qodirxon Imamov Vatan himoyachisi sifatida atrofdagilarga o‘rnak bo‘lyapti va ko‘plab yoshlarning hayotda o‘z yo‘lini topishida beminnat yordam ko‘rsatib kelmoqda.





To‘g‘risi, kapitan Qodirxon Imamov bilan yaqindan tanish emas edim. Shuning uchun dastlab tanimagan-bilmagan qahramonimni ko‘z oldimda gavdalantirishga ancha qiynaldim. Mudofaa vazirligi miqyosida “Eng ilg‘or boshlang‘ich tashkilot yetakchisi” ko‘rik-tanlovining 2024-yilgi g‘olibi. Bilganim, faqatgina shu xolos. Garchi uni tavsiya qilganlar o‘nlab e’tiborga molik voqealarni gapirib bergan bo‘lsa-da, nimadir yetishmayotgandek edi. O‘sha yetishmayotgan narsani kalavaning uchini qidirgandek izladim. Uni Uychi tumanidan oqib o‘tuvchi asov Norin daryosining shundoqqina sohilida joylashgan Qodirxon Imamov o‘sib ulg‘aygan go‘shadan qidirib topdim.

Qodirxon 72 yoshni qarshilagan, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Imamov Muhammadsodiq akaning eng kenja farzandi. Ikki nafar akasi va olti nafar opasining “erkatoy” ukasi. Oiladagi boshqa sakkizta farzand singari bolaligidan suyagi mehnatda qotgan. Muhammadsodiq aka barcha farzandini o‘qitdi, halol mehnatga o‘rgatdi. Eng muhimi – qayerda bo‘lsalaring ham Vatanga sadoqat bilan xizmat qilinglar, deya qayta-qayta takrorladi. Uychiga qo‘ng‘iroq qilib, Muborakdagi harbiy qismda xizmat burchini sharaf bilan o‘tayotgan Qodirxon haqida suhbatlashmoqchi ekanimni aytganimda ota qalbi g‘ururdan to‘lqinlanib ketdi. Barcha otalar singari farzandi erishayotgan yutuqlarni eshitib, ovozida yig‘iga monand hayajonlanish sezildi.

– Yoshligidan maktabda o‘q otish bo‘yicha to‘garak va turli musobaqalarda qatnashib yurardi, – deya hikoya qiladi Muhammadsodiq aka. – Har doim chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisining “Sen kelajakda mohir mergan bo‘lasan!” deb maqtaganini kelib aytardi. O‘qishga ham, ro‘zg‘or yumushlari va tengdoshlari bilan o‘ynashga ham vaqt topa olardi. Qodirxon ko‘chaga chiqmasa, Azizbek, Islomjon, Jasurbek, Ma’rufjon va mahalladagi boshqa o‘rtoqlari ham uyda o‘tirardi. Sportga, Norin daryosida suzishga qiziqardi. Qiziqishlari ortidan jismonan sog‘lom bo‘lib o‘sdi. Yetakchilik xislati bolaligidan qonida bor. Qodirxonning bu fazilatini ko‘proq akasi Shokirjonga o‘xshataman. Shokirjon ham ma’lum muddat tuman hokimligida yoshlar yetakchisi lavozimida ishlagan.

Ming shukrki, farzandlarimning bariga kerakli tarbiyani bera oldim. O‘g‘il-qizlarimning hammasi o‘qimishli, uy-joyli. Ammo oilada eng muhim qarorni u tanladi, deb o‘ylayman. Maktabni tugatgandan keyin Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakultetida o‘qimoqchi ekanini aytib qoldi. Harbiy bo‘lishini kutmagandim. Chunki Qodirxon kenjatoy sifatida erkatoylik maqomidan foydalanishi mumkin edi-da. Albatta, uning qarorini qo‘llab-quvvatladim. Harbiylikning Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishdagi mas’uliyatini hech qachon unutma, deya oq fotiha berdim.

O‘qishning ikki yilini boshqalardek odatiy o‘qidi. Keyin harbiycha hayoti boshlandi. Vatanga qasamyod qabul qilish marosimiga onasi Mukarramxon bilan bordik. Egnidagi harbiy libosi, qurolini ko‘ksiga mahkam bosgancha shaxdam qadam tashlashini ko‘rib, ko‘zimiz yoshlangan. Adashmasam, 2015-yilda edi. Qodirxon o‘qishni tugatgandan keyin Muborakdagi harbiy qismga jo‘natildi. Hozir mehnat ta’tili vaqtida kelib turadi. Baraka topsin, har kelganda, ro‘zg‘or ishlarini saranjomlab ketadi.

Ustozlari Rahmonjon Olimov *(maktabda)*, podpolkovnik Olim Abdurahmonov *(Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakultetida)*, podpolkovnik Sardor Sadirov *(harbiy qismda)* va birga o‘sgan mahalladosh do‘stlari, birinchi galda, kapitan Qodirxon Imamovning yetakchilik xislati haqida to‘xtalib o‘tishdi. Ayniqsa, bolalikdagi do‘sti Jasurbek tomonidan berilgan ta’rif Qodirxonning bugungi faoliyatidagi qirralarga juda ham o‘xshab ketadi:

– Ko‘pincha o‘rtoqlarimiz bilan askar-askar o‘ynardik. Qodirxon komandirlarga xos hammamizning vazifamizni taqsimlab chiqardi. Keyin esa shaxdam qadam tashlab ko‘rsatardi. Biz ortidan ergashib, uning harakatlarini takrorlardik. Qaror qabul qilishda qat’iyatliligi bilan ajralib turardi. Joyi kelganda, atrofdagilarga Qodirxondek ofitserning o‘rtoqlari sifatida maqtanib ham qo‘yamiz.

– Kapitan Qodirxon Imamov hayotda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan insonlarning etagidan mahkam tutadiganlardan. U bilan birinchi tanishgan kunimdanoq buni payqaganman. O‘rganishi kerak bo‘lgan narsani o‘rgatmaguningizcha hol-joningizga qo‘ymaydi. O‘zida borini esa boshqalarga erinmasdan o‘rgata oladi. “Ustoz-shogird” an’anasiga qat’iy rioya qiladi, – deydi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari podpolkovnik Sardor Sadirov.

– Harbiy qismdagi faoliyati davomida og‘ir toifaga kiruvchi oilalarni o‘rganish, ularga amaliy yordam ko‘rsatish, farzandlarining ta’lim olishi uchun kerakli darsliklar olib berish ishlarida izlanishdan to‘xtamaydi. Ro‘yxatda turuvchi yoshlar bilan “Jasorat maktabi” yig‘inlarida harbiy fanlarni o‘qitish va o‘rgatishda rahbarlik qildi. Buning natijasida 600 ga yaqin yosh harbiy xizmatga yo‘naltirildi.

Qahramonimizning padari buzrukvori Muhammadsodiq Imamov bir umr kolxozda, dalada sidqidildan mehnat qildi va “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi. O‘ziga yarasha yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga farzandlari tarbiyasini unutib qo‘ymadi. O‘g‘il-qizlariga yetakchilik xislati orqali o‘z yo‘lini topib ketishini uqtira bildi. To‘qqiz nafar farzand otaxon ta’kidlagandek turli joylarda, turfa jabhalarda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda. Muhammadsodiq ota esa farzandlarining yutuqlarini bugungi yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar samarasi deya baholaydi. Aslida ham shunday.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Ta’lim

HARBIY PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIGA BIR NAZAR

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, yangilanish davri keldi: “Yangi demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda”.

XXI asr texnika va texnologiyalar shiddatli rivojlanayotgan davr. Dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar ilm-fan, texnika taraqqiyotini tezlashtirdi, natijada barcha sohalarda misli ko‘rilmagan kashfiyotlar paydo bo‘ldi. Yildan yilga kishini hayratga soladigan yangidan yangi qurilmayu moslamalarning yaratilishi insonga ko‘pgina muammolarni qiyinchiliksiz hal etishga imkon beryapti. Ulardan unumli foydalanish odamlarning intellekti, ong-u shuuri, dunyoqarashiga ham ta’sir etib, ta’lim sohasini ham tubdan isloh qilishni taqozo etayotgani bor gap.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar mudofaa tizimini ham qamrab olgan. Qo‘shinlarning yuqori jangovar shayligi, shaxsiy tarkibning kasbiy mahorati harbiy ta’limga uzviy bog‘liq bo‘lib, bu soha ham qator o‘zgarishlar va islohotlarni kechirmoqda. Chunki mukammal ta’lim – yosh ofitserlarni har tomonlama faol, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatiga, mustaqil fikriga ega qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim muassasalarining doimiy zamonaviylashuvi, ta’lim beruvchilarning faoliyati, dunyoqarashi, bilimini boyitib borishi, yangilanishi hisoblanadi.

Keyingi yillarda harbiy pedagoglar malakasini oshirish, harbiy ta’lim integratsiyasini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro tajriba almashish yo‘lga qo‘yildi. Ofitser-pedagoglarimiz Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, AQSh, Germaniya, Belarus kabi qator davlatlarda malaka oshirib kelmoqda. Bu mamlakatlarning professor-o‘qituvchilari ham bizning ta’lim muassasalarimizda o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashmoqda.

Mudofaa vazirligi vakillari, xususan kursantlarimizning xalqaro harbiy o‘yinlar, musobaqalar va fan olimpiadalaridagi faol ishtiroki, qo‘lga kiritayotgan yutuqlari harbiy ta’limdagi o‘zgarish hamda yangilanishlar samarasidir, deyishimiz mumkin.

Ammo dialektikaning qonuni o‘laroq zamon, ilm-fan taraqqiyoti to‘xtamas ekan, ta’limga ehtiyoj ham to‘xtamaydi, demak, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish doimiy dolzarb bo‘lib qolaveradi. Chunki ta’lim beruvchi ta’lim oluvchidan ildam bo‘lishi pedagogikaning qonuniyatidir. Bugungi globallashuv, harbiy-ilmiy taraqqiyot, mazmuni kundan kun rang-baranglashayotgan kiberpsixologik urushlar harbiy ta’lim tizimida ham keng qamrovli innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Bu talab pedagog shaxsi tanlovini taqozo qiladi.

Mudofaa vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Mudofaa vazirligi harbiy ta’lim muassasalari harbiy o‘qituvchi lavozimiga nomzodlarni saralab olish va ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda harbiy pedagog nomzodi talablari, tanlab olish jarayoni va saralash komissiyasining vazifalari aniq ko‘rsatib berildi. Bu tanlov pedagog kasbiga munosabatni, hurmatni o‘zgartirdi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish markazida ofitser pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun muhim fanlar asosida o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda ko‘p yil pedagogik faoliyat bilan shug‘ullangan ofitser-o‘qituvchilar 144 soatlik dastur bo‘yicha bir oy davomida, o‘qituvchi lavozimiga yangi tayinlangan ofitser-o‘qituvchilar esa 288 soatlik dastur bo‘yicha ikki oy davomida xizmatdan ajragan holda o‘qitiladi. 2022-yildan malaka oshirish markazimizda Tojikiston Respublikasi harbiy ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari ham ta’lim olmoqda.

Markazda yosh pedagog ofitserlarda boshlang‘ich harbiy pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadida tashkil etilgan “Yosh pedagog” ilmiy maktabi ham faoliyatimizda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, kursant hamda tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish kutiladigan natijaning ijobiyligini belgilaydi.

Ta’lim tizimini isloh etish davlatning izchil va barqaror taraqqiyotini tayin etadi. Shu ma’noda harbiy ta’limda ham yuqori sifatga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Dilnavoz XOLIQOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti

Fikr

HARBIY TA’LIMDA NOAN’ANAVIY METODLAR

Harbiy ta’lim jarayonida noan’anaviy metodlarni qo‘llash, kursantlarning dunyoqarashini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, muammoga yechim topish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Klassik ta’lim usullari ko‘pincha passiv o‘qishga asoslangan bo‘lsa, noan’anaviy o‘qitish metodlari kursantlarni amaliyotga jalb qilishga, ularning fikrlash, mustaqil ishlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirishga qaratilgan.



Noan’anaviy o‘qitish metodlari kursantlarning individual ehtiyojlariga mosligi bilan ajralib turadi. Kursantlar ta’lim jarayonida o‘zlari uchun qulay bo‘lgan usullarni tanlab, o‘qish tempini o‘z talablariga muvofiq ravishda tanlashlari mumkin. Bu ularning shaxsiy qiziqishlariga va o‘qish tarziga mos keladi, natijada ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi ortib, samaradorlikka erishishga imkon yaratadi.

Noan’anaviy pedagogik metodlar – bu pedagogikadagi yangi, innovatsion va ijodiy yo‘nalishlari bo‘lib, ular kursantlarning faol ishtirokini, o‘ziga xos fikrlashini, tanqidiy yondashuv va ijodkorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Noan’anaviy o‘qitish kursantlarni barkamol shaxs, milliy iftixor ruhida tarbiyalangan mutaxassis qilib shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular qarorlar qabul qilish, stress va bosim ostida ishlash kabi vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni o‘rganadi. Bu esa yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, fikrini ishonch bilan ifoda qilishga va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, ishonchli munosabatlarga yordam beradi. O‘qituvchi mashg‘ulotda noan’anaviy metodlarni qo‘llar ekan, kursantlarning kreativ fikrlash, tahlil qilish, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, jamoaviy harakat qilish, qaror qabul qilish, dovyuraklik, kollaborativlik kabi fazilatlarini ham rivojlantirishi zarur.

Harbiy ta’limdagi noan’anaviy metodlarning afzalliklari quyidagicha:

– kursantlarning faolligini oshirib, ularni darsda faol ishtirok etishga undaydi, interaktiv muhitga jalb qiladi;

– kursantlarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni tashkil etishga imkon yaratadi;

– tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, kursantlarni o‘z fikrini erkin bayon etish, muammolarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi;

– mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi;

– nazariyaga nisbatan ko‘proq real vaziyatlar orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, noan’anaviy ta’lim metodlari nafaqat ta’lim oluvchini, shu bilan birga o‘qituvchilarni ham o‘z ustida ishlashga, kasbiy rivojlanishga undaydi. Shu sababli ta’limga yangi noan’anaviy metodlarni ko‘proq tatbiq etish, ulardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

N. RASHIDOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o‘qituvchisi



VAQT ILLYUZIYASIDAGI ORZULAR

Insonlar orasida shunday qadimiy va ilhomlantiruvchi ishonch borki, biz nima tilagan bo‘lsak, shu lahzadayoq amalga oshadi. Bu sehr emas, balki bizning har bir orzumizni, xohishimizni Yaratuvchi bilib, uni allaqachon oliy darajada ijro etganini anglatadi. Biroq bizning dunyomizda orzularimiz bir lahzada ro‘yobga chiqmaydi, balki mehnat, intilish va sa’y-harakat orqali bosqichma-bosqich amalga oshadi. Buning sababi shundaki, Yaratuvchi vaqt va makon illyuziyasidagi dunyoni yaratgan, bu esa bizga ichki rivojlanish va tushunchaga erishish yo‘lida yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi qadimgi ma’naviy va falsafiy tushunchalarni zamonaviy ilmdagi vaqt nazariyalari bilan bog‘lab, orzular ro‘yobga chiqishini va nima uchun ular darhol amalga oshmasligini chuqurroq anglashdir.

VAQT – YARATUVCHINING VOSITASI SIFATIDA

Ko‘plab diniy va falsafiy ta’limotlar, masalan, sufiylik, buddizm va induizmda vaqt illyuziya sifatida qaraladi, biz uning vaqtinchalik ekanini anglaymiz. Bu ta’limotlarda Yaratuvchi yoki oliy reallik vaqtdan tashqarida mavjud degan fikr ilgari suriladi. Masalan, islomda Alloh uchun o‘tmish, hozir va kelajak bir bo‘lib, insonning istaklari abadiy ravishda yaratilgan holda mavjud. Yaratuvchi nuqtayi nazaridan olib qaraganda, har bir istagimiz oliy rejada allaqachon ifodalangan.

Ammo bu reja bizning vaqt va makonga bog‘liq, qabul qilishimiz uchun noayon. Bir istak dunyoga kelishi bilan u allaqachon ijro etiladi, lekin uning hozirgi dunyoda zohir bo‘lishi darhol amalga oshmaydi. Buning sababi shundaki, orzuga erishish jarayoni insonni rivojlanishga, ichki o‘sishga olib keladi va uni maqsadiga arziydigan qilib yaratadi. Bizning dunyomiz, vaqt va jarayon bilan boshqariladigan hayot bizga istagan narsamizning qadrini tushunish, shukr qilish, sabrli bo‘lishga o‘rgatadi.

VAQT – ILLYUZIYA VA BLOK-OLAM KONSEPSIYASI

Zamonaviy ilmiy konsepsiyalar, jumladan nisbiylik nazariyasi va blok-olam nazariyasi vaqtning illyuziya ekanini qo‘llab-quvvatlaydi. Blok-olam konsepsiyasiga ko‘ra, o‘tmish, hozir va kelajak bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lib, “blok” sifatida yaratiladi, bu yerda barcha voqealar va lahzalar allaqachon mavjud. Bu konsepsiya bizga inson istagi haqiqatda uning tug‘ilishi bilan ro‘yobga chiqishini, lekin vaqt vositasidagina uni anglashimiz mumkinligini anglatadi.

Eynshteynning nisbiylik nazariyasi ham vaqtni mutlaq emas, balki obyekt harakati va gravitatsiya ta’siriga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bu fikr bizga Yaratuvchi, vaqtdan tashqarida mavjud ekanini, orzularni ko‘rib, ularni allaqachon ijro etganini anglashga yordam beradi. Inson uchun ular faqat ma’naviy va fizik rivojlanish jarayoni orqali zohir bo‘ladi.

Nima uchun orzular darhol ro‘yobga chiqmaydi: Yaratuvchi rejasi va mehnat qadri.

Inson uchun faqat orzuga erishish emas, balki uning yo‘lidan o‘tish ham muhim. Bu jarayon bizni orzularimizga munosib qiladi. Masalan, agar biz istagan narsani bir lahzada olish imkoniga ega bo‘lsak, biz tajribaning qiymatini va uni amalga oshirish uchun qo‘yilgan sa’y-harakatlarni yo‘qotar edik. Biz erishgan narsaning qadrini tushunmasdik, chunki uni olish uchun hech qanday harakat qilmagan bo‘lamiz.

Yaratuvchi bizga orzularimizga mehnat, sabr-toqat va qiyinchiliklarni yengish orqali erishish imkonini yaratgan. Bu bizga mehnatimiz samarasini qadrlashni va tushunishni o‘rgatadi. Biz vaqt illyuziyasi orqali ichki rivojlanish va o‘z-o‘zini kamol toptirish yo‘liga erishamiz.

ADOLAT VA UNGA ERISHILGANDAGI MUKOFOT

Yaratuvchi rejasining asosida adolat yotadi: inson o‘z mehnatiga yarasha mukofot oladi va istagan narsasi tayyor bo‘lganda, uning qo‘liga yetadi. Maqsad sari yo‘lda o‘sish va qiyinchiliklarni yengish bizga haqiqatda istagan narsalarimizga yetishish imkonini beradi. Agar har narsa osonlik bilan qo‘limizga yetganida edi, biz erishgan narsaning qadriga yetmagan bo‘lardik.

Shu bilan birga agar bizning orzularimiz boshqalarga foyda olib kelsa, ular ko‘pincha tezroq va go‘zal tarzda amalga oshadi. Demak, vaqt illyuziyasi va rivojlanish jarayoni bizga o‘zimiz va boshqalar uchun yaxshilik qilishga, maqsadlarimizga erishishga yordam beradi.

MAQSAD – ISHONCH VA SHUKR

Yaratuvchi bizning orzularimizga yo‘l berar ekan, ularga erishish chorasini ham beradi. Bu esa bizga sabr, shukr va ishonchni o‘rgatadi. Agar biz hamma orzularimiz allaqachon amalga oshganiga ishonsak, tinchlikka erishamiz. Bu jarayon o‘z ustimizda ishlash, shukr qilishga chorlaydi.

XULOSA – ONGLI BAXTGA ERISHISH YO‘LI

Qadimiy qarashlar va zamonaviy ilmiy konsepsiyalarni birlashtirgan holda, biz orzular ro‘yobga chiqadigan vaqtni anglashga kelamiz. Vaqt, bir tarafdan, illyuziya va boshqa tarafdan, Yaratuvchi bizga sabr qilishni va hayotga shukr qilishni o‘rgatish uchun yaratgan vosita. Shu yo‘l orqali biz o‘zimiz uchun tilagan baxt va rivojlanish yo‘liga chiqamiz.

Botirjon AHMADJONOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori *(PhD)*



Shohrux mirzoning ikkinchi farzandi Ibrohim sultonning o‘g‘li, Mirzo Ulug‘bekning kuyovi 17 yoshli Abdulla sulton Samarqandda davlat boshqaruv tizginini qo‘lga olgan paytda uni qo‘llab-quvvatlaydigan tajribali va g‘amxo‘r yaqinlari qolmagandi. Saltanat boshqaruvida mutlaqo tajribasiz va uquvi ham joyida emasdi. Amaki akasi Abu Said mirzo *(1424–1469)* qulay imkoniyatdan foydalanib, jon-jahdi bilan undan taxtni tortib olish payiga tushadi. O‘rtada bir necha marta qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tadi. Har galgi to‘qnashuvda Abu Said mirzoning jang mahorati o‘sib, o‘ziga ishonchi ortib boraveradi. Bir nechta mag‘lubiyatlarga qaramay, u umididan voz kechmaydi.

SAMARQAND TAXTI UCHUN KURASH

Abdulla sulton va Abu Said mirzo o‘rtasidagi urushning qisqa tafsiloti

IKKI SHAHZODA O‘RTASIDAGI FARQ

O‘n yetti yoshli o‘g‘lon. Kimsan, mashhur Mirzo Ulug‘bekning kuyovi, saodatli xoqon Shohrux mirzoning nabirasi. Manbalarda uning shaxsiga oid ma’lumotlar juda kam. Ba’zi mualliflar uni din, shariat ishiga beparvo bo‘lgan, deb ayblaydi.

Abu Said mirzoni dinparvar edi, deya undan yuqoriroq ko‘rsatishga urinishadi. Bu ma’lumotlar bir shaxsning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatish uchun juda kamlik qiladi.

Abdulla sulton Yassi shahriga Abu Said mirzoni ta’qib qilib boradi va kutilmaganda katta ustunlikka ega bo‘lishiga qaramasdan, osongina mag‘lubiyatga uchraydi. Bu uning saltanat taxtida uzoq tura olmasligining birinchi alomati edi.

XUROSONLIKLARNI HAYRATDA QOLDIRGAN HODISA

1451-yilning yozida Abu Said mirzo Toshkentdan chiqib, Abulxayrxon bilan ittifoqlikda son-sanoqsiz lashkar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Suvsiz Jizzax dashti orqali yurildi. Quyoshda qizib yotgan sahro issig‘ining zo‘ridan qo‘shin katta mashaqqatga duch keldi, yurish qiyinlashdi. Shunda Abulxayrxon yada toshini ishga solib, yomg‘ir chaqirishga buyruq berdi. Bu ishni uddalovchilar yada toshi yordamida havoni o‘zgartirdi. Tez orada dasht osmonini qora bulut qopladi, momaqaldiroq gumburlab bo‘ron turdi, ko‘kdan sharros yomg‘ir quyildi. Yozning qoq o‘rtasida bir necha kun yomg‘ir yog‘ib turdi, kun salqinladi.

Abdurazzoq Samarqandiy: *“Yog‘ingarchilik va sovuq shu qadar kuchayib ketdi, yada toshidan voqif bo‘lmagan Xuroson kishilari bu holdan bir muddat taajjubda qoldilar”*, deb yozadi.

Kichikkina yada toshi ularni cheksiz mashaqqatlar dashtidan shu tariqa olib o‘tgandi. Ular barcha qiyinchiliklarni yengib, Sheroz mavzesiga yetib keladi va yog‘iy bilan bo‘ladigan jangga hozirlikni boshlab yuboradi. Muarrixlar ta’kidlashicha, Abu Said mirzoning katta qo‘shin bilan Samarqandga yaqinlashgani ovoza bo‘lgach, Abdulla sulton lashkari qarorgohidan jangchilar to‘da-to‘da bo‘lib, uning o‘rdasiga kelib qo‘shilaveribdi.

ARI UYASIGA O‘XSHAGAN URUSH MAYDONI

Abdulla sulton yog‘iyni munosib kutib olish uchun mukammal qurollangan lashkar bilan Samarqanddan chiqdi va Sug‘d suvidan o‘tib, Sheroz qal’asi tarafga yurdi. Jangga chanqoq ikki lashkar ro‘baro‘ bo‘ldi va jangovar saflar tuzildi. Ushbu kun dunyoning barcha urushqoqlari shu yerga to‘plangan edi.

Muarrix urush maydonidagi manzarani ari uyasiga o‘xshatadi:

Arilardek nashtarli bir sipoh,
Lek arilar to‘dasidan ko‘proq.

Jang asboblari taxt qilinadi, saflar jangovar tartibda oldinga siljiydi, o‘qlar ucha boshlaydi. Otliq qo‘shin jangga kiradi, ko‘tarilgan chang-to‘zondan osmon ko‘rinmay qoladi. O‘ldirilgan va yaradorlar qonidan yer qizg‘aldoqzor bo‘ladi.

Muarrix jangni tobiga yetkazib ta’riflaydi va deydi:

“Abdulla sulton qodir bo‘lgani qadar sabot va qaror oyog‘ini mahkam bosdi. Ammo chap ham o‘ng qanot qo‘ldan ketib, qalb uning davlati ahvolidan o‘zgarishga uchradi. Samarqand lashkari birdaniga qochish yo‘li tomon burildi. Hayyo-hay olishuvlar asnosida Abdulla sultonning tiriklik chehrasi uzra baxtsizlik gardi



o‘tirib, hayotni boy berish tuzog‘iga ilindi va o‘ldirildi. Podshohlikning yetilish avjiga ko‘tarilgan baland ko‘chati yo‘qlik bo‘ronidan shikast topdi. Shahanshohlik ruxsorining oftob bilan tenglashish da’vosini urgan oy tutilish tuzog‘iga mubtalo bo‘ldi.

Bu voqea jumad ul-avvalning ikkinchisi, shanba kuni (1451-yil 22-iyun) oftob javzo oxirida ekanida sodir bo‘ldi. Mirzo Abu Said sulton ilohiy ne’mat shukrini bajo keltirdi”.

* * *

Abdulla sulton jangda o‘ldirildi. Uning tarafdorlari Samarqandni tashlab qochdi. Mamlakatga yangi hukmdor keldi. U ham qattiqqo‘llikda Mirzo Abdulatifdan kam emasdi.

Darvoqe, Abdurazzoq Samarqandiy yozadi:

“Mirzo Abu Said tadbirini ko‘rishga iltifot ko‘rsatgan va oqil kishilar nazdida g‘oyat maqtovga sazovor bo‘lgan birinchi muhim ishi – Mirzo Abdulatifning qotillaridan qasos hukmi bo‘ldi. Ularni qo‘lga tushirib, shahzoda Abdulatifga qay yerda qasd qilgan bo‘lsa, o‘sha yerda o‘ldirish va kuydirishga buyurdi”.

MAG‘LUBLARNING ENG QIMMATLI TO‘LOVI

Bu g‘alaba Abu Said mirzoni taxtga chiqardi, Abulxayrxonni ham quruq qo‘ymadi. Unga hisobsiz oltin-kumush va boshqa boyliklar tuhfa qilindi. Ularning orasida eng qimmatlisi Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya bibi edi. Shayboniyxonning bobosi, o‘sha shavkatli Abulxayrxon uni o‘ljalar qatorida olib ketdi va nikohiga oldi.


Mag‘lub biror narsasini asrab qololmaydi, himoya qila olmaydi. Yurt malikasi Robiya bibi mag‘lublarning eng katta to‘lovi bo‘ldi. Taqdir keyinchalik Turondagi o‘z hodisalarini u orqali davom ettirdi.

Abulxayrxon undan ikki nafar o‘g‘il ko‘radi. Ularning to‘ng‘ichi Ko‘chkunchixon va kichigi Sevinchxojaxon edi. Toshkentda ajoyib oliy madrasa va masjid qurdirgan Navro‘z Ahmadxon esa Sevinchxojaxonning o‘g‘li, Robiya bibining nabirasidir. U bunyod ettirgan oliy ilm dargohi Baroqxon madrasasi nomi bilan bugungacha Toshkent shahrining bezagi bo‘lib, Turonning bugungi boshkenti ko‘hna Shoshga ko‘rk bag‘ishlab turibdi.

Shayboniylarning Sevinchxojaxon tarmog‘i XVI asrning ikkinchi yarmi o‘rtalarigacha Toshkentda hukmronlik qiladi. Ular shaharda bir qancha bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.

Robiya bibi vafot etgach, Turkistonda avliyolar sultoni hazrat Ahmad Yassaviyning muborak ziyoratgohi yoniga dafn etiladi. Tepasiga gumbazli maqbara qurilgan. Hozir obod, ziyoratchilarning qadami uzilmaydigan fayzli va gavjum maskandir. Men bu qutlug‘ ostonalarni ziyorat qilgandim.

Abdusattor JUMANAZAR,
O‘zRFA Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi



> Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur.

JADIDLARNING ASOSIY G‘OYA VA MAQSADLARI

Ma’rifatchilikning yangi to‘lqinida – 1913–1915-yillarda “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Buxoroyi sharif”, “Turon”, 1917-yilda esa “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Hurriyat”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalari, “Oyina” jurnali kabi ijtimoiy-siyosiy bosma nashrlar katta rol o‘ynadi.

Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan jadidlar faoliyatini tahlil etishda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va ular faoliyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston milliy qomusida jadidchilik harakatiga quyidagicha ta’rif beriladi: *“Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi”*. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Ismoilbek Gasprinskiy boshchiligida Qrimda vujudga keldi. So‘ngra XIX asrning 90-yillaridan Turkistonda tarqaldi.

“Jadid” atamasi ilk marta Turkiyada Sulton Salim III hukmronligi *(1739–1802)* davrida paydo bo‘ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko‘rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi.

“Jadid” atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g‘oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo‘llanilib, dunyo tamaddunida bo‘layotgan ulkan madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo‘lsa-da, Turkiston o‘lkalariga ham kirib keldi. Abdulla Avloniy “gazeta o‘qig‘uvchilarni” mullalar “jadidchi” nomi bilan atar edilar” deydi. Turkiston jadidlari Turkiyadagi “Yosh turk”lar tashkilotlari ta’sirida “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” degan nomlarda faoliyat olib borgan.

Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma’naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikka, Chor Rossiyasining mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi, deb yozadi tarix fanlari nomzodi Yusuf Manzarov.

Jadidchilarning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:

– Turkistonni O‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

– shariatni isloh qilish;

– xalqqa ma’rifat tarqatish;

– Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;

– Buxoro va Xivada konstitusiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

– barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan so‘ng matbuot, san’at va siyosatga o‘tgan. 1884-yil Bog‘chasaroyda Ismoilbek Gasprinskiy *(1851–1914)* tomonidan dastlabki “usuli jadid” *(yangi usul)* maktabining ochilishi Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, maktab-maorifda inqilob yasadi. Uning bu xizmatlari 1927-yilda Toshkent okrugi ma’orif xodimlari qurultoyida Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan, *“Jadid maktabi tashkil qilg‘onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarning yetishtirgan kishilari edi. Ular yolg‘iz Bog‘chasaroyda chiqadurg‘on Ismoil Gasprinskiy gazetasini o‘qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar”* deb e’tirof etiladi.

Bog‘chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gasprinskiy Turkiston general-gubernatori N.O. Rozenbaxga o‘lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Undan rad javobini olgach, 1893-yil Turkistonga o‘zi keladi va Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo‘lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o‘tkazadi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi.

Shu tariqa Turkistonda jadidlar tomonidan yangi maktablar ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. “Usuli jadid” maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, fanlari, rus, fors tillari kabi jami 17 tagacha fan o‘rganilishi shartlari ilgari surildi. 1899-yilda Shamsuddin domla Andijonda, 1901-yilda Salohiddin domla Qo‘qonda va Abduqodir Shakuriylar Samarqandda birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar.

Filolog olim, professor Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” nomli kitobida quyidagicha fikr bildiradi: *“Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayonni tashkil qildi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini, anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar”.*

Jadidlar yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy *“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”*, degan haqqoniy fikrlari bilan xalqni uyg‘otishga harakat qiladi. Taraqqiyotga eltadigan birdan bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida I. Gasprinskiyning “usuli jadid”ini tinmay targ‘ib qiladi. Hayotning turli sohalariga taalluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida yoyishga harakat qiladi.

Behbudiy 1913-yil “Oyina” jurnalida yozgan “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasida til o‘rganishga e’tibor qaratib, *“Bank va sudxonalar, sud mahkamalari, notarius, temiryo‘l, xulosa, zamonni paydo qilgan har bir yangi nimarsalarig‘a muhtoj bo‘lsak, avvalg‘i qadamda ruscha bilmoq lozim kelur... Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg‘a xizmat ilmsiz bo‘lmaydur. ...Xulosa, bugun bizlarg‘a to‘rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy”* deb ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Bu esa tarixning murakkab, mas’uliyatli davrida millatni, xalqni ma’rifatli qilish, ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qildi.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir.

Olim YULDASHEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
o‘qituvchisi

Dunyo kezgan so‘zlar



TILIMIZNING OLMOS JILOLARI

Dunyoda azaldan tilning tarqalishi va assimilyatsiya – dissimilyatsiyada, ya’ni xalqlarning bir-biriga qo‘shiluv yoki kamayishida harbiylar katta rol o‘ynaydi. Aniqroq aytganda, til tijorat sohasi yo‘liga qaraganda harbiy yo‘l bilan keng tarqaladi.



Masalan, ko‘pchilik “kazarma” so‘zini rus tilidan bizga o‘zlashgan deb o‘ylaydi. Vaholanki, “kazarma” so‘zi aksincha, bizdan qo‘shni davlatlarga tarqalgan. “Kazarma” so‘zining tarqalish tarixi quyidagicha: sohibqiron Amir Temur bobomiz mamlakatimizga qarashli bir manzilda o‘z harbiy qo‘shinini tushirib, kechki hordiq chiqarish uchun askarlarni mahalliy aholi xonadoniga 2-3 nafardan bo‘lib tarqatadi. Shunda sarkarda o‘sha qo‘nalg‘a bo‘lgan qishloqda bir qiz yolg‘iz o‘zi tunda suvga chelak ko‘tarib chiqqaniga ko‘zi tushadi. Buni g‘ayritabiiy qabul qilgan Amir Temur qizning otasini topib kelishlarini so‘raydi. Va undan “Nega erkak kishi bo‘la turib qizingni tunda suv olib kelishga chiqarasan?” deb so‘raydi. Haligi ota esa Temurning buyrug‘i bilan uyiga ikki nafar harbiy askarni joylashtirganini, xotini va bir nafar bo‘yiga yetgan qizini uyida, ikki nafar harbiy bilan qoldirib, o‘zi suvga chiqolmasligini aytadi. Temur bobomiz xatosini tushunib, o‘sha zahotiyoq hamma askarlarini uyg‘otib, keng dalaga chiqib ketishadi. Maxsus yotoq uchun daladan keng yer topib “qazirma” qiladi, ya’ni yerni odam bo‘yi qazib, ustini yopib yotoqqa joy tayyorlaydi. Asli “qazirma” bo‘lgan “kazarma” so‘zini aynan biz hikoya qilib berganimizdek, Rossiyada chiqadigan xalqaro jurnal – “Вопросы философии”da ikki rus olimi ham e’tirof etgan.

HARBIY TAKTIKA, strategiyani qo‘ya turaylik, nafaqat “kazarma” so‘zi, balki bugun harbiy o‘quv yurtlarda hamda harbiy qismlarda ishlatiladigan aksariyat so‘zlar buyuk fotih va jangchi Amir Temur harbiy ta’limotidan tarqalgan.

Biz buni nima uchun aytyapmiz, bugungi kunda harbiy o‘quv yurtida tahsil olayotgan **farzandlarimiz, avvalo, o‘z milliy ona tilimiz tarixini bilishi va unga hurmat ruhida tarbiya topishi lozim. Ona tili ham Vatan kabi muqaddas**. Ana shunda xorijiy tilni ham o‘z ona tilimizga solishtirib o‘zlashtirishi, o‘zligimizning tarkibiy qismiga aylanadi.

YANA MASALAN, Amir Temur qo‘shini taktik bo‘linmasi “ovong‘or” – saralangan bo‘linma so‘zidan hozir ruscha “avangard” so‘zi paydo bo‘lgan. “Avangard” hozirda nafaqat harbiy sohada, balki ijtimoiy turmushning boshqa sohalariga ham o‘zlashib ketgan. Deylik, rassomchilik yo‘nalishida “avangard” san’ati bor, qishloq xo‘jaligida guruchning “avangard” navi bor. Qo‘yingki, juda ko‘p sohalarga o‘zlashgan. Shu tariqa harbiy ilmda ham bir necha so‘zlarimiz boshqa tillarga o‘zlashgan. Temur davridagi “karaul”, “yasaul” kabi so‘zlar ham ko‘chib o‘tgan.

“Neft” so‘zi ham xorijiy tildan emas, aksincha bizdan boshqa tillarga ko‘chgan. Harbiy qurol sifatida qal’alarni yondirish uchun sopqon otuvchi palaxmonlar, manjanaqlar yonayotgan neftni otgan va “naftandoz” deyilgan. “Naftandoz”, ya’ni “neft otuvchi” so‘zi o‘zbekcha va forscha so‘zlar birikmasidan yasalgan. Neftga bizda shifobaxsh suyuqlik deb ham qaralganini, hozirgi Namanganning Qirg‘iziston bilan chegaradosh Moylisoy hududida neft quduqlari bo‘lganini, u yerdagi soyga neft quyilib turganini va qo‘tir dardiga uchragan bemorlar yaralariga neft surganligini hamda “naftalin” nomi bilan bu modda tibbiyotda qo‘llanishi, bemorlar bundan shifo topganliklarini tarixchilarimiz yaxshi bilishadi. Bir zamonlar dunyoga til borasida ham hukmronlik qilgan bizning madaniyatimiz xorijiy madaniyat va globallashuvga “yutilib” ketmasligi uchun harakat qilishimiz kerak bo‘ladi. Masalan, Janubiy Amerikada inklar madaniyatidagi “ene” so‘zi bizdagi “ona” so‘ziga to‘g‘ri kelishi nimani bildiradi?! Bu xalqning nima uchun turish-turmushi, rangi-ro‘yi turkiy qavmni eslatadi?

AMIR TEMUR harbiy hujumlarida ko‘p qo‘llangan “Urho-ur!” hayqirig‘i ham MDH davlatlarida hozirda “Urra!” da’vatining asl manbasi va muqobili hisoblanadi. Harbiy yo‘l bilan mo‘g‘ullar hukmronligi davrida juda ko‘p so‘zlar boshqa tillarga ko‘chib o‘tgan. Mo‘g‘ullarning turklashgan davrida odil hukmdorlar ham ko‘p bo‘lgan. Ayniqsa, Oqtoy *(O‘gaday)*, Kepekxonlar juda ko‘p bunyodkorlik ishlarini qilishgan. Masalan, Kepekxon *(1318–1326-yillar hukmronlik qilgan)* davrida u o‘z nomidan tanga pullarni zarb etgan. Shuning uchun ruslardagi tanga pullar “kapeyka” deyilishi “Kepekxon”dan olingan. Bizda bolalarni “bo‘ji keldi”, deb qo‘rqitilishi ham mo‘g‘ullarga borib taqaladi. Mo‘g‘ul hukmdorlaridan biri Jo‘ji zolimligi bilan mashhur bo‘lgan. Bolalarni qo‘rqitishda avval bu so‘z “jo‘ji keldi” shaklida bo‘lgan.

Muayyan millatga xos sof tilning o‘zi yo‘q. Xalqlar etnogenezi sababli tillar o‘zlashadi. Turkiycha “buqa” so‘zi rus tilidagi “бык*(a)*” bilan ohangdosh. Bu so‘z asli turkiychami yoki ruscha bo‘lganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Turkiycha “buqa”dan tashqari, bu jonivorning yoshrog‘ini “buza”, “buzoq” deyilishi, umuman turkiy elatlarning aksariyatida “buga” so‘zi qo‘llanilishi bu atamani bizga tegishli ekanini bildiradi. Ruscha “izyum” so‘zi bizdagi mayizni bildiradi. Mayiz esa “uzum”ning qoqi, ya’ni quritilganidir. “Abrikos” ham turkiychadir. Bu so‘zning turkiychaligini O‘ljas Sulaymon ham o‘zining “Az i Ya” asarida asoslagan. Navoiy viloyatidagi “Zarafshon” daryosining ma’nosi “oltin daryo” deganidir. “Zar” – “oltin”, “afshon” *(forscha so‘z)* – “o‘zan” *(turkcha)* bo‘lishi kerak. Chunki ma’danshunoslar qadimgi konchilik usulida bu daryodan oltin sizib olganlari to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Tog‘dagi o‘yiq joylar bizda “g‘or” deyiladi, ruscha “gor(a)” esa tog‘ning o‘zini bildiradi. “Qo‘r”, “qora”, “o‘r” so‘zlari qadim turkiycha bo‘lgani uchun ham “g‘or” – tog‘ so‘zlari bizdan o‘zlashgan deyishimiz mumkin.

O‘TGAN ASR boshlarida harbiy harakatlar bilan Vatan uchun kurashgan vatandoshlarimiz davrida ham o‘zimizning harbiy til bo‘lgan. Masalan, “qo‘rboshi” so‘zidagi “qo‘r” gulxan atrofida yig‘ilib, mashvarat qilgan harbiy sarkardalar gulxan o‘chganda ham cho‘g‘, ya’ni “qo‘r” atrofida uzoq qolishgan. Umuman, juda ko‘p ona tilimizga oid so‘zlarni harbiy o‘quv yurtlarida talaba va kursantlarga xorijiy tillarni o‘qitganda, uning sinonimi bo‘lgan harbiy tilimizdagi mos so‘zlarni o‘rgatib, saboq berishimiz lozim bo‘ladi. Ayniqsa, “g‘”, “q”, “o‘” harflari bilan boshlanadigan so‘zlar, narsalar nomining deyarli barchasi qadim turkiychada uchraydi. Do‘m, do‘ng, do‘nglik kabi ma’noni bildiruvchi “tom” so‘zi ruscha “dom” – uy ma’nosiga aylanganidan ko‘pchilikning xabari bor. Ruschada “u” degan ma’noni bildiradigan “on” so‘zi aslida biznikidir. Misol uchun, “on hazrat”, “onki xabarsiz qoldi”; “onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” *(Alisher Navoiy)* kabi so‘zlarni eslab ko‘ring. Bularning barchasi, albatta, esimizga tushganlaridir.

MUSULMON O‘LKALARIDA savdogarlarga harbiylar yordam berishi sababli “shak” – ya’ni “gumon” ma’nosidagi qog‘oz keng yo‘lga qo‘yiladi. Chunki Xitoydan to Andalusiyagacha savdogarlar naqd pullarini qaroqchilarga oldirib qo‘yaverganlari uchun ular o‘zaro ishonchdagi bozorgonlarga “shak” puli, ya’ni gumon qilingan pulning summasi yozilgan oddiy qog‘oz ishlatila boshlangan. Aynan “chek” so‘zi “shak” iborasidan olingan. Pul o‘rniga “shak”, ya’ni “chek” yozish zamonamizgacha yetib keldi.

Harbiy o‘quv yurtlarida, avvalo o‘z ona tilimizga e’tibor bersakkina xorijiy tillarni yaxshi o‘zlashtiramiz.

Shuhrat JABBOROV,
Zulxumor EGAMNAZAROVA
Qurolli Kuchlar akademiyasi

Kelajagimiz egalari

YOSHLARNING SIYOSIY, HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH – DAVR TALABI



Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda aholining qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etib, ular globallashuv jarayonida zamon talablarini ilg‘ash va ularni amalga oshirish, turli soha va tashabbuslarni olg‘a surishda katta tayanch, bebaho xazina va kuchdir. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini va madaniyatini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi e’lon qilindi. Mazkur farmoyish mazmun-mohiyati, 2023-yil 1-maydan e’tiboran, milliy tariximizda ilk bor Umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz kuchga kirganini, Bosh qomusimiz bugungi kun hayotimiz va kelajagimizni huquqiy jihatdan kafolatlovchi mukammal hujjatga aylangani, “Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi” degan bosh g‘oya qisqa muddatlarda xalqimiz hayotiga singib, o‘z samara va natijalarini berayotganidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga kvotalarning oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlardir. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni nufuzli respublika hamda xalqaro olimpiadalar va musobaqalardagi ishtiroki va salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlarning milliy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish uchun ham katta e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar masalasiga e’tibor, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, amalga oshirayotgan ijobiy ishlarini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli maqsadli ishlarni 2008-yilning “Yoshlar yili” deb e’lon qilinishi, 2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi, Yoshlar akademiyasi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, joriy yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” yili deb e’lon qilinishi kabi ulug‘vor ishlarda namoyon bo‘lganini e’tirof etish lozim.

Yosh avlod qalbida ona Vatanga mehr va sadoqat tuyg‘ularini jo‘sh urdirish, Konstitutsiyamiz va boshqa qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash asosiy burchimizdir. Shunday ekan, bugungi kunda kelajagimiz poydevori bo‘lgan yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga yanada e’tiborli bo‘lishimiz, ularga siyosiy madaniyatni tushuntirish va singdirish juda muhimdir. Yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faol ishtiroki demokratik huquqiy davlatni, fuqarolik jamiyatini qurishga yordam beradi. Shu bilan birga yoshlar davlat siyosatidan, uni boshqarish tizimlari faoliyatidan, kundalik ijtimoiy munosabatlardan xabardor bo‘lishi juda muhimdir.

Siyosiy madaniyat inson ma’naviy kamolotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni shakllantirish va yuksaltirish maqsadga muvofiqdir. Chunki siyosiy madaniyat insonning kundalik harakatlaridan tortib, davlat va jamiyat siyosiy-huquqiy munosabatlarining eng yuqori darajasidagi ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz jarayonni qamrab oladi. Ya’ni siyosiy madaniyat mohiyati amalda namoyon bo‘lishiga ko‘ra, jamiyat taraqqiyotiga bo‘lgan ongli munosabatni bildiradi. Shuning uchun ham siyosiy madaniyat jamiyat a’zolarining barchasiga taalluqlidir.

Huquqiy madaniyat esa fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarini egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to‘g‘ri foydalana olish bilan birga, ularga amal qilish hamdir. Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston boshqaruv tizimida “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan hayotiy tamoyillar, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minlash kabi ulug‘vor g‘oyalar negizida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor jihati hisoblanadi. Bunday jamiyat esa qonun ustuvorligiga tayanadi. Bu qonunlar barchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mujassam bo‘lib, u yosh avlodning siyosiy, huquqiy madaniyatini oshirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Qonun ustuvorligiga erishish shu jamiyatda yashovchi har bir fuqaroning, jumladan yoshlarning ham siyosiy, huquqiy madaniyatiga, belgilangan tartib qoidalar asosida ijtimoiy hayotda yoshlarning faol ishtirok etishi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va munosabatlarga nisbatan faol bo‘lishni anglatadi.




Jumladan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Undan tashqari, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” konsepsiyasi qabul qilinib, uning asosiy vazifa va maqsadlari, yo‘nalishlari ko‘rsatilgan va konsepsiyani samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. “Yo‘l xaritasi”ga 88 ta band kiritilgan bo‘lib, barcha sohalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs-oila-mahalla-ta’lim muassasa-tashkilot-jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, deb qayd etilgan.

Yuqorida keltirilgan barcha farmon va qonunlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, davlatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni, millatlararo do‘stlik va totuvlikni asrashda barcha soha vakillari, ayniqsa yoshlar hamqadam bo‘lishi kerakligidan dalolat beradi. Zero yoshlarning siyosiy, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim-tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilishini ta’minlash zamon talabidir.

M. KARABAYEVA,
M. BEKCHANOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchilari



SUSTKASHLIK – O‘LIM BILAN BAROBAR

ROBERT GRIN “TARIX SABOQLARI VA HAYOT STRATEGIYALARI”

Angliya va Daniya o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik o‘zgacha va nozik xarakterga ega edi. Angliya harbiy mahsulotlar yetkazib bermaslik to‘g‘risida Fransiyaga qarshi e’lon qilgan embargoni qo‘llab-quvvatlashga Daniyani majbur qilish boshlangan urushdan ko‘zlangan asosiy maqsad edi. Nelson Napoleonni juda yomon ko‘rar va shu bois daniyaliklarga qarshi urushda juda chuqur ketib, ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni butunlay barbod etishi mumkin edi. Hukumat ana shu mulohaza tufayli uni qo‘mondon etib tayinlamagandi. Ser Parker esa yosh jihatidan Nelsondan katta, juda vazmin va har qanday topshiriqni me’yor chegaralarini buzmasdan bajaradigan odam edi.

Nelson nafsoniyatini bir iloj qilib yengib, o‘rinbosarlik lavozimini qabul qiladi. U bo‘lg‘usi operatsiyada vaqt juda katta ahamiyatga ega ekanligini sezib turardi. Chunki tezroq hujumga o‘tilmasa, daniyaliklar mustahkam mudofaa chizig‘ini tashkil etib, inglizlarni mushkul ahvolga solib qo‘yishlari mumkin edi. Parker esa anchayin bamaylixotirlik bilan ish tutadi. Sansalorlikni yomon ko‘rgan Nelson xaritalar ustiga muk tushib josuslar yetkazgan xabarlarni tahlil qilar va Parkerga maktub yo‘llab, tashabbusni qo‘ldan chiqarmasdan, tezroq hujumga o‘tishga uni da’vat etardi. Biroq Parker uning barcha murojaatlarini inkor qilardi.

Va nihoyat 11-mart kuni Britaniya floti jangga kiradi. Biroq to‘g‘ri Kopengagenga hujum qilish o‘rniga, Parker kemalarni shahar shimolida langar tashlatib, kapitanlarni majlisga chaqiradi. Razvedka ma’lumotlariga ko‘ra, daniyaliklar shahar atrofida mudofaa istehkomlarini barpo etib, artilleriya batareyalarini joylashtirishgan. Shaharga yaqinlashib kelgan har qanday kemani to‘plardan o‘qqa tutib, cho‘ktirib yuborish imkoniyati hosil qilingan. Ana shunday vaziyatda hujumga o‘tish qanchalik to‘g‘ri? Yaxshisi Daniya flotini ochiq dengizga chiqishini kutib turish ma’qul emasmi?

Bu mulohazalarni tinglab, Nelson o‘zini zo‘rg‘a ushlab turardi. Oxiri o‘rnidan shitob bilan turib, hali birorta jangda kutish orqali g‘alabaga erishilmagan, deb so‘z boshlaydi u. Nelson bir-necha hafta avval ishlab chiqqan rejasini bayon etadi. Unga ko‘ra, o‘zi shaharni anchayin qulay bo‘lgan janub tomonidan hujum qiladi, Parker esa shimolda payt poylab turadi. Daniyaliklar janubdan hujumga o‘tgan Nelsonga qarshi kuchlarini safarbar etganda, qulay fursat kutib turgan va himoyachilari janub tomonga yo‘l olgan shimoldan Parker qo‘qqisdan hujumga o‘tadi.

Nelsonning nutqi barcha kema kapitanlariga o‘zgacha kuch va shijoat baxsh etadi. Hatto Parker ham undan ta’sirlanib, rejani qabul qiladi. Ertasiga Nelson janubdan hujumga o‘tadi. Ammo daniyaliklarni to‘plari yaqin masofaga kelib qolgan ingliz kemalarini ayovsiz o‘qqa tutadi va dushmanga juda katta talafot yetkazadi. Hatto Nelsonning “Fil” nomli kemasida ham snaryad portlaydi.

Shimolda jangni kuzatib turgan Parker o‘rinbosarining rejasini qabul qilganiga qattiq afsuslanardi. Chunki bunday muvaffaqiyatsiz jang tufayli uning butun karyerasi xavf ostiga qolgandi. To‘rt soat davom etayotgan jang taqdiri qariyb hal bo‘layozgandi: inglizlar mag‘lubiyatga uchrashi aniq bo‘lib qoladi. Parker ortga chekinishni bildiruvchi 39 raqamli bayroqni ko‘tarishga buyruq beradi. Bu bayroqni ko‘rgan kema navbat bilan keyingi kemaga signal berishi va shu tariqa butun flot ortga chekinishi lozim edi.

“Fil” kemasining bir ofitseri chekinish to‘g‘risidagi bayroqni ko‘rib, bu haqda Nelsonga xabar berganida, u buyruqni inkor etib, jangni davom ettirishga qaror qiladi. Hujumga o‘tishni bildiruvchi 16 raqamli bayroq ko‘tarilgan holda turibdimi, deb so‘raydi yordamchisidan. “Ha” degan javobni eshitib, bu bayroq tushirilmasin, deb buyruq beradi. Parker kemasidan esa ortga qaytish haqidagi signal ketmaket kelib turardi. Shunda Nelson yordamchisiga qarab, “Bilasiz, meni bitta ko‘zim ko‘rmaydi, ikkinchisi ham jang davomida ko‘r bo‘lib qolgan bo‘lishi ham mumkin-ku” – deydi. Nelson bilan birga hujum qilayotgan kemalar kapitanlari qo‘mondon Parkerning buyrug‘iga bo‘ysunmaslik qanday oqibatlarga olib kelishini yaxshi bilishsa-da, ammo admiralning shashti va shijoatini ko‘rib hujumni davom ettirishadi. Tez orada daniyaliklarni barcha o‘tochar nuqtalari yakson qilinadi va ularning mudofaa chizig‘i yorib o‘tiladi. Bir soatdan keyin esa Daniya taslim bo‘ladi.

Ertasi kuni Parker qisqagina qilib, Nelsonni g‘alaba bilan tabriklaydi. Nega chekinish haqidagi buyrug‘imni bajarmadingiz, deb so‘rab ham o‘tirmaydi. Chunki Parker qo‘rqoqlik qilib, chekinish to‘g‘risida bergan buyrug‘ini hamma tezroq esdan chiqarishini xohlardi.

VOQEAGA SHARH

Ser Parkerni flot qo‘mondoni etib tayinlab admiralteystvo harbiy ishga xos xatoga yo‘l qo‘ygandi: harbiy harakatlarni olib borish bir qolipdagi qat’iy tartibga bo‘ysunadigan va ehtiyotkor odamga ishonib topshirilgandi. Bunday odamlar bir qaraganda va tinchlik zamonlarida vazmin, sipo va hatto kuchli bo‘lib ko‘rinishadi. Lekin ularning ayni xislatlari ortida zaifliklari yashirinib yotgan bo‘ladi. Ular har bir narsani ipidan ignasigacha rejalashtiradigan, xato qilib qo‘yishdan va mansablarini yo‘qotishdan qattiq qo‘rqadigan xarakter egasidirlar. Bu toifa kimsalarning butun salbiy jihatlari jang vaqtida qalqib yuzaga chiqadi. Ana shunday paytda ular mustaqil qaror qabul qilishga ojiz ekanliklari sezilib qoladi. Ular hamma narsada faqat muammo va chigalliklarni ko‘radilar. Kichkina muvaffaqiyatsizlik ham ularni egardan ag‘darib tashlaydi. Sabr-bardoshli bo‘lganlari uchun emas, qo‘rqoqliklari tufayli sustkashlikka yo‘l qo‘yishadi. Hayot-mamot masalasi hal bo‘layotgan paytda ikkilanish va sustkashlik – o‘lim bilan barobar.

Goratsio Nelson jismoniy jihatdan nimjon va zaif edi va shu bois hayot va urushda o‘zining bu ojiz jihatlarini yengilmas iroda va qat’iyatlik xislatlari bilan to‘ldirgandi.

Ba’zida Emotsiyaga berilish oqibatida tez asabiylashib, voqealar maromini ilg‘ab yetishga ojizlik qilib qolamiz. Tushkunlikka tushish esa – ojizligimiz belgisidir. Ruhan tushkunlik haddan ziyod ehtiyotkorlikni tug‘diradi. Aslida esa o‘ta ehtiyotkorlik odamning xato qilib qo‘yishdan nihoyatda qo‘rqishini ko‘rsatadi. Ana shunday sharoitda o‘zingizda ishonch xislatini mustahkamlang va bu tushkunlik va o‘ta ehtiyotkorlikka qarshi xizmat qiladi. Ikkilanish va xavotir onlarida qat’iyatli bo‘lishga o‘rganing. Har qanday xatoni shijoat va tashabbusni qo‘lga olish bilan tuzatsa bo‘ladi. Ehtiyotkorlik biror narsaga tayyorgarlik bosqichidagina asqatishi mumkin. Jang boshlanganda esa ikkilanib turishdan voz keching.

Jaloliddin SAFOYEV
tarjimasi





SARHAD SADOSI

Musiqa insoniyatning buyuk kashfiyoti, muloqot vositasidir. So‘zda ta’riflab, qalamda tasvirlab bo‘lmas tuyg‘ular, tasavvur hamda kechinmalarimiz kuy-qo‘shiqlarda o‘z ifodasini topadi. Dillarni dillarga, ellarni ellarga bog‘lovchi kuy-qo‘shiqlarda jo bo‘lgan ajib bir ruhiyat, go‘zallik hamda nafosat yuraklardan chuqur joy oladi.









Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini ko‘tarish, ularning qalbida yurtga muhabbat va cheksiz sadoqat hislarini shakllantirishda ham, harbiy-vatanparvarlik qo‘shiqlarining o‘rni beqiyos.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari qo‘mondonligida o‘tkazilgan “Sarhad sadosi” harbiy-vatanparvarlik qo‘shiqlari ko‘rik-tanlovi ham ana shunday ezgu maqsadlarni diliga jo etgan sarhadlarimiz posbonlarining iqtidori-yu iste’dodini namoyon etdi.

Tadbirning ochilish marosimida so‘z olganlar, harbiy-vatanparvarlik qo‘shiqlari insonning ong-u shuuri va hissiyotlariga juda kuchli ta’sir ko‘rsatib, xonanda uch-to‘rt daqiqali ijrosi davomida jonajon o‘lkamizning bor go‘zalligi-yu, tarovatini o‘z qo‘shig‘ida namoyon eta olishi bilan birga, bu ozod va obod chamanni asrash har birimizning muqaddas burchimiz ekanini ham tinglovchilarga anglata olishi mumkinligini alohida ta’kidladilar.

“Saf qo‘shiqlari”, “Estrada qo‘shiqlari” va “Lirik qo‘shiqlar” kabi yo‘nalishlarda o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda hududiy saralash bosqichlarida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan harbiy xizmatchilar g‘oliblik uchun o‘zaro bellashdi.

Mazkur jarayonda ishtirokchilarning yo‘nalishlar bo‘yicha mavzu tanlay olish qobiliyati, taqdim etilgan qo‘shiqlarda musiqa, so‘z hamda ijro uyg‘unligining namoyon bo‘lishi, qatnashchilarning sahna madaniyati va tomoshabin bilan jonli muloqotga kirisha olish mahorati sinovdan o‘tkazildi.

– E’tiborlisi, tanlovda qatnashayotgan ishtirokchilar qatorida muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar Dostonbek Ilhomjonov va Jasurbek Mahmudovning ham borligi bo‘ldi. Askarlarimizning qo‘shiqchilik mahoratini baholash barobarida, ularning gitara chalish borasida ham yaxshigina ko‘nikmaga ega ekanligiga guvoh bo‘ldik. Bu, albatta, bizni juda quvontiradi, – deydi hakamlar hay’ati raisi kapitan Ilyosbek Nazirov.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra, “Saf qo‘shiqlari” yo‘nalishida 1-o‘rinni kichik serjant Jumanazar Toshpo‘latov, “Estrada qo‘shiqlari” nominatsiyasida kichik serjant Husniddin Halimqulov va “Lirik qo‘shiqlar” yo‘nalishida muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Dostonbek Ilhomjonov egalladi.

G‘olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, esdalik sovg‘alar hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Ta’kidlash kerakki, an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan bu kabi ijodiy ko‘rik-tanlovlar, iste’dodli harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda yosh iqtidor sohiblariga yangi imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

KASALLIKLARNI TASHXISLASH VA DAVOLASHNING INNOVATSION USULLARI

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida “Kasalliklarni tashxislash va davolashning innovatsion usullari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda akademiya tinglovchi hamda kursantlari, harbiy qism va muassasalarning tibbiyot xodimlari ishtirok etdi.


Bahrom ABDURAHIMOV

Tibbiyot akademiyasi haqida, unda bo‘lib o‘tgan turli ma’rifiy tadbirlar, ilmiy anjumanlar haqida gazeta sahifalarida tayyorlangan, tayyorlanayotgan yangiliklar, xabarlar o‘quvchilarga yaxshi tanish. Mazkur oliy dargohning asosi birgina harbiy tibbiyot fakulteti bo‘lganini ko‘pchilik bilsa kerak. Uning bugungi muhtasham qiyofasi, o‘quv moddiy-texnik bazasi yagona harbiy tibbiyot fakultetidan boshlanganiga ishonish qiyin. O‘sha harbiy fakultetning ilk qaldirg‘ochlari haqida o‘z vaqtida turkum maqolalar tayyorlangan. Bugun... bugun Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi Markaziy Osiyoning eng nufuzli oliy ta’lim dargohlaridan biri sanaladi. Va uning tinglovchilari orasida xorijliklar ham talaygina.

Respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqsad-mohiyati, o‘tkazish tartibi bilan Harbiy tibbiyot akademiyasi boshlig‘i tibbiy xizmat polkovnigi Bahodir Abdulahatov tanishtirdi.

Ilmiy-amaliy anjuman avvalida uning dasturi bilan tanishdik. Dasturda yigirma yetti ma’ruzachi va ularning ma’ruza mavzulari ko‘rsatilgan. Bu shunchaki raqam emas, tibbiyotning yigirma yetti yo‘nalishidagi qimmatli va dolzarb ma’lumotlar, ilmdir! Ularning har biri haqida alohida to‘xtalishning imkoni yo‘q. Ma’ruzachilar orasida – Mudofaa vazirligining bosh jarrohi, tibbiy xizmat polkovnigi Ulug‘bek Rasulov, bosh infeksionisti, tibbiy xizmat polkovnigi Abduvohid Azimov, bosh kardiologi, tibbiy xizmat polkovnigi Baxtiyor Muhiddinov, akademiyaning Jangovar jarrohlik patologiyasi kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori Muxtor Eshbekov, Akfa Medline Central Asian University professori Serge Rasskazoffning borligi anjumanning yuksak darajada tashkil etilgani va qamrovining kengligini anglatadi. Eng muhimi, anjuman qatnashchilari uchun katta tajriba almashuv, zamonaviy tibbiy bilimlarini oshirish uchun katta imkoniyatdir. Vaqt qadrlanadigan ayni kunlar uchun tibbiyotning yetakchi mutaxassislaridan ma’ruzalar tinglash ilm istovchilar uchun ayni muddao.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi bosh tibbiy boshqarma boshlig‘i, tibbiyot fanlari nomzodi To‘lqin Isaqulovning ko‘rgazmali ma’ruzasi katta qiziqish bilan kutib olindi. Ilm bir joyda to‘xtab qolmaydi, u hamisha rivojlanishda davom etadi. Bugun tibbiyot sohasiga sun’iy intellektning kirib kelgani ham ana shunday rivojlanish mahsulidir. Dasturchi Islom Abdulahatovning “Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va kasalliklarni aniqlash texnologiyalari” deb nomlangan ma’ruzasi sohadagi mazkur yangilikni batafsil ta’riflashi bilan diqqatga sazovor. Ilmiy anjumanda yetuk mutaxassislar qatorida Harbiy tibbiyot akademiyasining kursantlari ham o‘z ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashdilarki, bu mamlakat tibbiyotiga, xususan harbiy tibbiyotga yosh, umidli, istiqboli porloq mutaxassislarning kirib kelayotganini bildiradi.

Tadbir so‘ngida ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilariga sertifikatlar berildi.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

1-dekabr – Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni

HUSHYOR BO‘LING, OXIRI O‘LIM!

Dunyoda hech ishning osoni yo‘q. Ayniqsa, inson salomatligi va tarbiyasi, ma’naviyat va ma’rifat masalasi targ‘ibot-tashviqot bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi.

Sog‘lom turmush tarzi faqatgina badantarbiya, to‘g‘ri ovqatlanish va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish emas, balki to‘g‘ri va ijobiy xulq-atvorga ham ega bo‘lish deganidir. Afsuski, oramizda shunday insonlar borki, xulq-atvorini turli xil nuqson va illatlar egallab olgan. Kimdir ichkilikka berilgan, kimdir tamakibozlikka mukkasidan ketgan bo‘lsa, ba’zilar giyohvand moddalarni qabul qiladi, betartib jinsiy aloqa bilan shug‘ullanadi. Holbuki, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, betartib jinsiy aloqa oqibatida insonga qon orqali o‘tadigan turli kasalliklarning yuqish xavfi yuqori bo‘ladi. Ana shunday xavfli kasalliklardan biri – OIV.

OIV har ikki holatda ham insonga yuqishi va uning oqibati o‘lim ekani barchaga ma’lum. Tibbiyotda sabab-oqibat mexanizmi tushunchasi mavjud bo‘lib, aytmoqchi bo‘lganimiz, salbiy xulq-atvorlar birin-ketin zanjir sifatida tizilib, inson hayoti va umrini ayanchli, tubsiz jarlik qarshisiga yetaklab boradi.

Bugun dunyo bo‘yicha 48 milliondan ko‘proq aholi OIV kasalligidan aziyat chekmoqda. Kasallik klinik belgilarini darhol namoyon etmaydi. Ko‘pgina fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz kasallikning birinchi klinik belgilari namoyon bo‘lgandagina shifokorlarga murojaat etishmoqda. OIV infeksiyasi faqat odamlarda uchraydigan surunkali yuqumli kasallikdir. Kasallik manbai OIVni yuqtirib olgan odam hisoblanadi. Virus bemor odam organizmida butun hayoti davomida saqlanib qoladi.

OIV infeksiyasining kechishi bir necha davrdan iborat. OIV infeksiyasining yashirin davri bir necha oydan 5-8 yil va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Bu davrda virusni yuqtirib olgan shaxslar ko‘rinishidan sog‘lom bo‘lib, ularda kasallikning hech qanday belgilari kuzatilmaydi. Kasallikning bu davri ancha xavfli hisoblanib, OIVni yuqtirib olgan shaxslar o‘zlari bilmagan holda kasallikni boshqalarga yuqtirishi mumkin. OIV infeksiyasida o‘z me’yorida ishlab turgan immunitet tizimi yillar davomida virusning tajovuzini bosib turadi. Virus organizmda to‘siqsiz ko‘payib, asta-sekin immunitet tizimini mutlaqo izdan chiqaradi.

OIV infeksiyasi 3 xil yo‘l – parenteral – teri va shilliq qavatlar butunligining buzilishi bilan amalga oshiriladigan muolajalar, tekshirilmagan qon va qon mahsulotlari bemorlarga quyilganda, a’zo va to‘qimalar ko‘chirib o‘tkazilganda, nosteril tibbiy va notibbiy asboblardan foydalanilganda *(qon qoldiqlari mavjud bo‘lgan ustara va tish cho‘tkalari umumiy ishlatilganda, tatuirovka, kosmetika muolajalarida, bir martalik shprislar qayta ishlatilganda)* kasallik yuqishi mumkin. Jinsiy aloqa va vertikal – OIVni yuqtirib olgan homiladorlardan homilaga yoki chaqaloqqa homiladorlik davrida *(agar yo‘ldosh jarohatlangan bo‘lsa)*, tug‘uruq jarayonida va tug‘ilgandan so‘ng ko‘krak suti bilan emizilganda yuqadi.

OIV quyidagi hollarda yuqmaydi: jarohatlanmagan teri va shilliq qavatlar orqali kasallik yuqmaydi. Shuning uchun bemor bilan bitta idishdan ovqat yeyish, u bilan gaplashish, qo‘l berib ko‘rishish, quchoqlashish, umumiy cho‘milish havzalari, hojatxonadan foydalanish xavfli emas. Kasallikning qon so‘ruvchi hasharotlar *(chivin, bit, kana va boshqalar)* orqali yuqishi isbotlanmagan. Oilaga, turmush o‘rtog‘iga to‘liq vafodor bo‘lish, faqat shaxsiy ustara, tish cho‘tkalari va boshqa shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish hamda tibbiy muolajalar olish zaruriyati tug‘ilganda faqatgina sterillangan, bir marotaba ishlatiladigan instrumentlardan foydalanish orqali OIV infeksiyasi yuqish xavfini kamaytirish mumkin.

Tibbiy xizmat mayori
N. OMONOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi bo‘linma boshlig‘i

Voqeiy hikoya

MEHRIDARYO ENAM



– Enajoon, enaa!.. Qayerdasiz? Oyog‘imga tikan kirdi, jiydaning tikani, – orqasiga o‘t ko‘tarib olgan o‘n yoshlardagi qizgina darvozadan hovliga kirar-kirmas, astoydil yig‘lab yubordi.

– Bolaginam, nima bo‘ldi, tikan kirdi deysanmi? – ayvondagi so‘rida o‘tirgan Ashirbibi momo etakka tugilgan o‘tni yerga tashlagancha, bir oyog‘ini sudrab bosayotgan nabirasi Xushnoza tomon shoshildi. – Zormanda tikan oyog‘ingdagi shippakdan o‘tib qanday kirdi?! Qani, mana bu yerga o‘tir-chi.

Momo nabirasining qo‘ltig‘iga kirib, so‘riga o‘tkazdi. Shippagini yechib, oyog‘ining kaftiga kirgan tikanga razm soldi. Boshini sarak-sarak qilganicha, ko‘ylagining yoqasiga qadalgan to‘g‘nog‘ichni olib, uning ignasi bilan tikanni chiqarishga tutindi. Foydasi bo‘lmadi, kattagina tikan anchayin ichkariga kirgan.

– Maqsudaxon, hooy Maqsudaxon, – hovli etagidagi tomorqada ish qilayotgan kelinini chaqirdi Ashirbibi momo va qo‘li bilan “yetib kel” ishorasini qildi.

– Tinchlikmi, buvi, yana Xushnoza ish ko‘rsatdimi, deyman, – oyog‘ini uzatib, tinmay voy-voylayotgan qiziga beparvo razm soldi Maqsuda opa.

– Ha, dalada o‘t terib yurganida oyog‘iga tikan kiribdi, jiydaning tikani.

– Jiydaning tikani yerda nima qiladi, hoynahoy daraxtga chiqqan bo‘lsa kerak. Shundaymi? – o‘qrayib qiziga savol nazari bilan qaradi ona.

– Jiyda yegisi kelgandir-da, shunga shuncha dakkimi, – keliniga e’tiroz bildirdi momo.

– Jiydani pastda turib, qoqib yesa ham bo‘ladi-ku. Buni yer ko‘tarmaydi o‘zi, qachon qarama, daraxtga chiqib, oyoq-qo‘lining bir joyini lat yedirib keladi. Yo ko‘ylagini ildiradi yoki tikan kiradi.

– Javramasdan tezroq kattaroq igna topib keling, – kelinini jerkib berdi momo. – Tikanni chiqarib tashlamasak bo‘lmaydi, yiring bog‘laydi.

– Vahima qimasangiz-chi, buvi. O‘tgan hafta erka nevarangiz oyog‘i barmog‘ini shisha sinig‘i kesib yuborgandi, endi bo‘lsa... Akalari, opasi bu qadar o‘zboshimcha bebosh emas, bu qanday qiz bo‘ldi, bilmadim.

Maqsuda opa kuyinib javragancha uy ichidan igna topib chiqdi va tikanni chiqarishga kirishdi. Iloji yo‘q, tikan joyidan siljiy demasdi. Bu orada oyog‘ini tipirlatib voy-voylayotgan Xushnozaga bir-ikki shapati tushdi.

– Doktorga olib boramiz, shekilli, iloji yo‘q! – qaynonasiga qaradi Maqsuda opa.

– Yo‘q, bo‘lmaydi, bolaginam azob tortadi, doktorlar oyog‘ining kaftini kesib, keyin tikonni chiqarib olsa kerak.

– Shunday bo‘lsa, yana yaxshi, zora, shu bahona sho‘xligi sal pasaysa.

– Bo‘ldi-da, dakki berishning ham me’yori bor, – kelinini urishib berdi Ashirbibi momo. – Doktor kerakmas, o‘zim hozir xalqona dori tayyorlayman.

Momo dori tayyorlashga kirishib ketdi. Supra ichidagi xamirturushdan yong‘oq kattaligida olib, dog‘lanmagan paxta yog‘i qo‘shib obdan ezg‘iladi. So‘ngra oftobga qo‘yilgan issiqqina uvada ustiga qo‘yib Xushnozaning oyog‘i kaftiga bog‘lab qo‘ydi.

– Dori ertalabgacha turishi kerak, yechib yuborma, qizim, – yig‘idan ko‘zlari qizargan tinib-tinchimas nabirasining boshini siladi momo. – Xudo xohlasa, ertalab tikandan xalos bo‘lasan. Umring ziyoda bo‘lsin, ilohim, o‘ziyam onang aytganidek rosa sho‘xsan-da, bolam...

Ne ajabki, ertalab mo‘jiza ro‘y bergandi. Xushnoza oyog‘idagi bog‘lamni yechganida kattagina tikan xamirturushga sanchilgan holda turardi. To‘g‘rirog‘i, xamirturush tikanni so‘rib chiqargandi...

* * *

1986-yil, qishloqda pilla sezoni. Maktab o‘qituvchi va o‘quvchilaridan tortib, bog‘cha xodimlariga qadar xonadonlarda yetishtiriladigan pilla terimiga jalb etilgan. Davlat siyosati shunday. Pilla o‘z vaqtida sifatli darajada terib, topshirilishi shart.

– Qizlar har doimgidek, bolalarga qarash uchun guruhlarda bittadan tarbiyachi bo‘lib qoladi, – mudira sifatida bog‘cha xodimlarini ogohlantirdi Xushnoza. – Qolganlar bog‘chaga biriktirilgan xonadonga pilla terimiga boradi. Hammaga tushunarlimi, muammo yo‘qmi?

– Tayyormiz, – birin-ketin javob qaytardi xodimlar.

– Unda, qani ketdik, tez-tez pillani terib beramizda, bog‘chaga ishga qaytamiz.

Xushnoza bir yoshdan oshgan o‘g‘ilchasini ko‘targancha, ularga yo‘l boshladi. Pilla terilayotgan joy o‘zi katta bo‘lgan ota uyiga qo‘shni. Balki, shu bahona uydagilarini, enasini ko‘rib chiqar.

Pilla terishning o‘ziga xos gashti bor. Ayollarning qo‘li qo‘liga tegmaydi. Tozalangan oppoq pillalar uyum bo‘lgani sari zavqing keladi. Bir tomoni ishni tezroq tugatib, bog‘chaga qaytish kerak. Axir xalqning bolasiga har qanday holda ular javobgar. Shunda pilla terilayotgan joyga Ashirbibi momo kirib keldi.

– Enajon, Xushnoza enasini ko‘rib, xursand bo‘lib ko‘risha ketdi. – Chiqqaningiz yaxshi bo‘ldi, sizni sog‘ingandim, imkon qilolsam, kiraman deb turgandim.

– Mana, o‘zim chiqdim, bolam. Qo‘shnimiz Turdixon pillamizni tergani bog‘chadagilar kelar ekan, degandi, kutib turgandim. Evaramni ko‘rmaganimga ancha bo‘ldi, Diyorbekni olib kelgandirsan?

– Ha, olib kelganman, shu yerda yurgandi. Diyorbek, qayerdasan, o‘g‘lim? – atrofga alanglab o‘g‘ilchasini izlay boshladi Xushnoza.

Oppoq pillalarga ajablanib qarab, qo‘llariga to‘ldirib otib o‘ynayotgan bolakay, onasining chaqirganiga parvo qilmasdi. Bu ham yetmagandek, pillalarni oyoqlari ostiga olib bosishga tushdi.

– Voy, ahmoq, pillani nega ezyapsan? – Xushnoza jon holatda o‘g‘ilchasining oyog‘iga shapati tushirdi.

– Bu nima qilganing, qizim, bir yoshdan oshgan bola nimani tushunadi? – yig‘layotgan evarasini bag‘riga bosdi momo. – O‘zing yaqingacha yerga ursa, ko‘kka sapchirding, go‘dakni turtkilaganing nimasi. Bolamni uyga olib kirib, o‘zim qarayman. Ishing tugagandan keyin olib ketarsan.

Ashirbibi momo evarasining ko‘zyoshini arta-arta, erkalatib, olib chiqib ketdi. Xushnoza “Qiynalasiz-da, enajon!” degancha qolaverdi. Ha, saksonga yaqinlashayotgan bag‘rikeng enasi hali ham baquvvat. To‘qqizta nabirani katta qilgani yetmagandek, evaralargayam mehribon, Xushnoza ham enasining qo‘ynida katta bo‘lgan. Ko‘zining oq-qorasi, yolg‘iz o‘g‘li Nozimjondan bir etak nabira ko‘rgan momo qiz nabiralariga boshqacha qayishardi. O‘g‘lining qizlariga bergan ozgina dakkisi ham unga og‘ir botar, ba’zida arazlab qolardi.

Kamgap, kamsuqum Ashirbibi momo matal va maqollarga usta edi. Kechqurunlari nabiralariga ertaklar aytib berishdan charchamasdi. Ayniqsa, Xushnozaga enasining ertaklari juda yoqardi. Qizaloq voyaga yetgani sari sochlari o‘sib o‘rimga kira boshladi. Ammo uning hurpaygan sochlarini yuvish oson emasdi. Har safar “Boshimni enam yuvsin”, deb turib olardi.

– Qizim, sochlaring ham o‘zing kabi qaysar, qatiq bilan yuvmasak, bo‘lmaydi, tarash qiyin, chigal tushaveradi, – nevarasining boshiga qatiq surib tarashga tushdi momo.

– Mayli, enajon, onam yuvmasa bo‘lgani. Sochimni og‘ritib taraydi, boshimni ushlab olsam, qo‘limga uradi.

– Onangni juda ishi ko‘p, qizim, kun bo‘yi tinmaydi, sening ko‘nglingga qarab, o‘tirishga vaqti yo‘q. Hademay, o‘zing boshingni yuvadigan katta qiz bo‘lasan. Ungacha o‘zim yuvib, chiroyli qilib o‘rib qo‘yaman...

Yillar o‘tdi, Xushnoza katta qiz bo‘ldi, o‘qidi, oila qurdi. Ammo enasining nazarida hali ham yosh boladek, hamon mehr ko‘rsatishdan charchamaydi. Xushnoza esa shu paytgacha enasiga biror sovg‘a qilolgani yo‘q. Biroq bu galgi maoshidan enasiga yoqadigan rangda chiroyli mato sotib oldi. Dam olish kunida kutilmagan sovg‘a qilib olib bormoqchi. Enasi rosa xursand bo‘lsa kerak. Xushnoza shularni xayolidan o‘tkazib, jilmayib qo‘ydi.

Pilla terib bo‘lingach, xodimlar bog‘cha tomon shoshildi. Xushnoza o‘g‘ilchasini olish uchun hovlisiga kirdi. Diyorbek o‘ynab o‘tirar, Ashirbibi momo uni kulib, kuzatib turardi.

– Sizni qiynamadimi, enajon?

– Nimaga qiynalaman, qizim, bolang keng hovlida maza qilib o‘ynadi.

– Nega uyda hech kim yo‘q, hammalari bog‘dami, deyman?

– Haa, hammalari qulupnay tergani ketishgan, halizamon kelib qoladi. Bugun uyda qolsang bo‘lmaydimi, qizim? – nabirasiga negadir mungli qiyofada termildi momo.

– Enajon, hozir bog‘chaga kirishim kerak, – shoshildi Xushnoza. – Keyin uydagilardan ruxsat olganim yo‘q. Dam olish kuni, albatta kelaman, sizga sovg‘am bor, – enasining ko‘ksiga bosh qo‘yib erkalandi u...

Xushnoza tun bo‘yi alaq-chalaq tushlar ko‘rib chiqdi. Tong sahar... Tong sahar esa Ashirbibi momoning olamdan o‘tgan xabari keldi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Jarayon

OILA — MUQADDAS QO‘RG‘ON

Podpolkovnik Baxtiyorjon Normurodov xizmat qilayotgan harbiy qismda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya podpolkovnigi Gulchehra Tursunova va Guliston harbiy prokurori adliya podpolkovnigi Farrux Jumayev ishtirokida tadbir bo‘lib o‘tdi.

Huquqiy savodxonlik, oila, farzandlar tarbiyasiga e’tibor qaratish mavzulari ilgari surilgan tadbirda adliya podpolkovnigi Farrux Jumayev yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga urg‘u bergan holda, harbiy xizmatchilarning sharafli kasbiga bo‘lgan sadoqati va e’tibori, o‘g‘il-qizlarni harbiy sohaga hurmat ruhida tarbiyalash borasida so‘z yuritdi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va atrofdagilarning turli oqimlarga qo‘shilib ketishini oldini olish borasida fikrlar bildirdi.

Oila – muqaddas dargoh, uni asrab-avaylash har bir er va ayol oldida turgan mas’uliyat. Chunki bu aziz go‘shada inson nafaqat halovat topadi, balki millat istiqboli bo‘lmish kelajak avlod voyaga yetadi. Buning uchun oilaning bek va bekalari bir-biriga sadoqatli bo‘lishi, xonadon muhitini chiroyli asrashi, fidoyiligi bilan farzandlariga namuna bo‘lishi lozim.

Tadbirda so‘z olgan adliya podpolkovnigi Gulchehra Tursunova oila mavzusiga to‘xtalar ekan, oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablari, salbiy oqibatlari, farzandlar tarbiyasiga nojo‘ya ta’sirlar xususida hayotiy faktlarni aytib o‘tdi. Shuningdek, qiz bolalarni erta turmushga uzatmaslik, ilmli, kasb-korli qilish va olovqalb, bilimdon qizlarga yo‘l ochib berish, tayanch bo‘lishga chaqirdi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek: “Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman, qizlaringizni o‘qiting, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishlarida ularga ko‘makchi bo‘ling. Ulug‘larimiz aytganlaridek, o‘g‘il bola o‘qitsak, bir kishi savodli bo‘ladi, qiz bolani o‘qitsak, butun oila, butun jamiyat bilimli bo‘ladi”.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”



76-modda

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Qo‘mondon va yoshlar

TAASSUROTLARGA BOY UCHRASHUV

Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik, Toshkent harbiy prokuraturasi va Yoshlar ishlari agentligi mas’ullari ishtirokida Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda qo‘mondon va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.



Unda Yunusobod tumanida joylashgan 18 ta mahalla yoshlari orasidan tarbiyasi og‘ir, jinoyatchilik va huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bor, band bo‘lmagan yoshlar hamda maktab o‘quvchilari ishtirok etdi.

Harbiy orkestr sadolari ostida ko‘tarinki ruhda kutib olingan yoshlar dastlab harbiy qismda harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. O‘quv mashg‘ulot xonalari hamda sport majmualari bo‘ylab ekskursiya qilishdi.

Shu kuni yoshlar uchun qo‘shinlar qo‘mondoni bilan samimiy suhbat tashkil etildi. Ochiq muloqot tarzida tashkil etilgan uchrashuv davomida mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor, ularning ilm olishi, kasb-hunar o‘rganishi uchun yaratilgan sharoitlar xususida so‘z bordi. Yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

Tadbir davomida yoshlar o‘rtasida sportning turnikda tortinish bo‘yicha bellashuv ham o‘tkazildi. Ayniqsa, qo‘mondonlik matbuot xizmati tomonidan tayyorlangan “Yangi O‘zbekiston armiyasi” va “Yigit yo‘li” nomli tarbiyaviy hamda motivatsion ruhdagi videoroliklar barchada katta taassurot qoldirdi.

Tadbir so‘ngida bir guruh faol yoshlar qo‘mondonlik tomonidan esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Yashil makon



UMUMMILLIY LOYIHADA BARCHA FAOL

Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotganiga guvohmiz. Hozirda barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik tasarrufidagi barcha harbiy qismlar shaxsiy tarkibi tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ko‘chatlari ekilmoqda.

Loyiha doirasida harbiy xizmatchilar tomonidan ob-havo sharoiti va mahalliy hudud iqlimidan kelib chiqqan holda, 43 mingga yaqin manzarali va mevali daraxt ko‘chati yerga qadalib, mavjudlari esa parvarishlandi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda harbiylar bilan birgalikda aholining barcha qatlami, xususan faxriylar va qo‘mondonlik tomonidan otaliqqa olingan o‘quvchi-yoshlar ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Respublikamizning olis cho‘l va tog‘li hududlarida joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari ham muntazam ravishda daraxt ko‘chatlari va dekorativ gullar ekilgan yerlarga ishlov berish jarayonlarida faol.

Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda shaharlarning markaziy ko‘chalari, harbiy qismlarga biriktirilgan ta’lim muassasalari va harbiy shaharchalarda ham hashar yo‘li bilan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

Shahnoza SULTONOVA

Inson qadri uchun

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Xorazm viloyatining Shovot tumanida o‘rganishlar olib borildi.

Amaliy choralar ko‘rildi

Xususan, Bo‘ston mahallasida energotejamkor uskunalar ko‘rgazmasi o‘tkazilib, mutaxassislar ishtirokida energiya samaradorligini ta’minlashda e’tibor qaratish muhim hisoblangan ma’lumotlar yetkazildi.

Ijtimoiy soha obyektlarida, jumladan tibbiyot punkti va 44-umumta’lim maktabida qish mavsumiga tayyorgarlik va energiyani iqtisod qilish borasidagi ishlarga e’tibor qaratildi.

So‘ngra aholi bilan hamjihatlikda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ajratilgan hududga ko‘chatlar ekildi. Jarayonda fuqarolar bilan ochiq muloqot o‘tkazilib, ularning muammolari o‘rganildi va hal etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi.

Mutasaddi tashkilotlar jalb etilgan holda, bo‘sh ish o‘rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Arzonlashtirilgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmarkasi ham mahalla ahli uchun ayni muddao bo‘ldi.

Aholi uchun tashkil etilgan tibbiy ko‘rikda esa bolalar, xotin-qizlar, nuroniy otaxon va onaxonlar tekshiruvdan o‘tkazilib, shifokorlar tomonidan tibbiy tavsiyalar berildi.

Adliya kapitani Shoilhom SHOAKBAROV,
O‘zbekiston Harbiy prokuraturasi
bo‘lim harbiy prokurori

Vatanparvarlik

Urganch harbiy prokuraturasi va tegishli idoralar hamkorligida Xorazm viloyatining chegaraoldi hududida joylashgan Bo‘yrachi mahallasida vatanparvarlik tadbiri o‘tkazildi.

Ezgulik targ‘iboti

Dastlab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan hududga ko‘chatlar ekildi. So‘ngra “Sog‘lom hayot uchun 10 ming qadam piyoda yurish” tadbiri amalga oshirildi.

Shu bilan birga, 38-umumta’lim maktabida o‘quvchi-yoshlarga harbiy xizmatchilarning chiqishlari namoyish qilinib, oziq-ovqat, o‘quv anjomlari, kitob va energiya tejamkor uskunalar ko‘rgazmalari tashkil etildi.

Jarayonda harbiy prokuror va yoshlar, uch avlod uchrashuvlari o‘tkazildi.

Adliya kapitani
Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy prokurorining
katta yordamchisi

So‘ragan edingiz

HUQUQIY MASLAHAT



Savol: Men ilmiy tadqiqot muassasasida ishlayman. PhD va DSc ilmiy darajalariga ega bo‘lgan fuqarolar kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirganda ularga qanaqa harbiy unvon berilishi haqida ma’lumot bersangiz. Oldindan rahmat.

Javob: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra, ilmiy daraja, ilmiy unvonga ega bo‘lgan va ofitserlar tarkibi lavozimlariga kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga qabul qilingan fuqarolarga mayor va ungacha bo‘lgan harbiy unvon berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim tashkilotlarining boshqaruv, ilmiy va professor-o‘qituvchilar tarkibidagi lavozimlariga ilmiy darajaga *(ilmiy unvonga)* hamda kamida besh yillik ilmiy va pedagogik ish tajribasiga ega bo‘lgan fuqarolarni kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga qabul qilishda ularga quyidagi harbiy unvonlar beriladi:

fan nomzodlari, falsafa doktorlariga *(PhD)* – kapitan;

fan doktori *(DSc)*, dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan fan nomzodi, falsafa doktorlariga *(PhD)* – mayor;

professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan fan doktorlariga *(DSc)* – podpolkovnik.

O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi axborot xizmati

Sana

“Vatanparvar” tashkilotining 33 yilligi nishonlandi

23-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilgan kun. Bundan 33 yil avval – 1991-yil 23-noyabrda bo‘lib o‘tgan Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi butunittifoq ko‘ngillilar jamiyatining VIII Qurultoyi qarori bilan O‘zbekistondagi DOSAAF negizida O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilgan edi.



Sana munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashida tantanali tadbir tashkil etildi. Videoanjuman shaklida o‘tgan marosimda “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi apparati, tashkilot huzuridagi muassasalar va joylardan hududiy kengashlar xodimlari hamda tashkilot tizimida uzoq yillar davomida ishlagan mehnat faxriylari ishtirok etdi.

Tadbirda “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov so‘zga chiqib, tashkilot tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni qutladi. O‘z nutqida u respublika mustaqilligining tengdoshi hisoblangan “Vatanparvar” tashkiloti 33 yillik faoliyati davomida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiy etishiga va tinchlik-osoyishtaligi ta’minlanishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shganini, jumladan tashkilot har yili minglab fuqarolarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan turli texnik kasblarga tayyorlayotgani hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda munosib hissa qo‘shib kelayotganini bildirdi.

Shuningdek, “Vatanparvar” tashkiloti xalqaro chempionatlar va kubok musobaqalarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilgan yuzlab muvaffaqiyatli sportchilarni yetishtirgani esa nafaqat respublikamiz, balki xalqaro sport tashkilotlari tomonidan to‘la e’tirof etilmoqda. Xususan, tashkilotning texnik va amaliy sport turlari bo‘yicha shug‘ullanayotgan sportchilari joriy yilning o‘n oyida MDH, Osiyo va jahonda o‘tkazilgan sport musobaqalarida 21 ta oltin, 25 ta kumush va 25 ta bronza medalga sazovor bo‘lganliklari bunga yaqqol dalildir.

Respublikaning turli hududlaridan so‘zga chiqqan tashkilot xodimlari va mehnat faxriylari erishilayotgan yutuqlardan mamnun ekanliklarini bildirib, jamoaning kelgusidagi ishlarida muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘zbekiston chempionati

Jizzax shahridagi Navro‘zbuloq poygagohida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan avtokross bo‘yicha O‘zbekiston chempionati musobaqasi o‘tkazildi.



Eng mohir avtokross sportchilari aniqlandi

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 70 nafar sportchi “A-7”, “A-8”, “NU” va “Baggi” sinflarida sport avtomobillarida bellashdilar.

Qizg‘in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“Baggi” sinfida:
1-o‘rin: Furqat Ahrorqulov *(Jizzax v.)*;
2-o‘rin: Elyor Mullajonov *(Sirdaryo v.)*;
3-o‘rin: Odil Norqo‘ziyev *(Sirdaryo v.)*.

“A-7” sinfida:
1-o‘rin: Sardor To‘ychiyev *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Ulug‘bek Muxtorov *(Navoiy v.)*;
3-o‘rin: Asliddin Siddiqov *(Samarqand v.)*.

“A-8” sinfida:
1-o‘rin: Umid Soatov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Nikolay Sayev *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Sardor To‘ychiyev *(Toshkent sh.)*.

“NU”, ya’ni Milliy sinfda:
1-o‘rin: Nurbek Imomqulov *(Sirdaryo v.)*;
2-o‘rin: Alyakay Xayrullayev *(Namangan v.)*;
3-o‘rin: Samandar Xusanov *(Jizzax v.)*.

Umumjamoa hisobida:
1-o‘rin: Toshkent shahri;
2-o‘rin: Sirdaryo viloyati;
3-o‘rin: Jizzax viloyati jamoalari.

G‘oliblikni va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Armiya va yoshlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo tumani Qilichboy madaniyat markazi maydonida “Biz bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak Vatanmiz!” g‘oyasi asosida “Ma’naviyat karvoni” loyihasi doirasida harbiy-vatanparvarlik tadbiri bo‘lib o‘tdi.





AMUDARYO YOSHLARIGA MANZUR BO‘LGAN FESTIVAL

300 dan ortiq yoshni bir davraga jamlagan festivalda tuman hokimligi xodimlari, sektor rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi, Qurolli Kuchlar akademiyasi mas’ul ofitserlari va boshqa kuch tuzilmalari vakillari ishtirok etdi.

Hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirning ochilish marosimida so‘zga chiqqanlar harbiylarning sharafli va mas’uliyatli kasbi xususida to‘xtalar ekan, yoshlarning Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida kamol topishida bu kabi tadbirlarning ahamiyati beqiyos ekanini ta’kidlashdi. Shu bilan birga



harbiy kasb nufuzi, mamlakatimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik, milliy armiyamizda olib borilayotgan islohotlarning samarali natijasi o‘laroq, bugun armiyamiz jahon mamlakatlari orasida qudratli kuchga ega bo‘lib borayotganini e’tirof etishdi. Kelgusida harbiy xizmatchi bo‘lish istagida bo‘lgan yoshlar uchun oliy harbiy ta’lim muassasalari haqida ma’lumotlar berib o‘tildi.

Faxriy qorovulning saf chiqishlari, Nukus harbiy orkestr jamoasining Vatan madhini tarannum etgan kuy va qo‘shiqlari, chegarachilar tomonidan milliy armiyamizning jangovar qudrati namoyish etilgan ko‘rgazma yoshlarda bir olam taassurotlar qoldirdi. Bir so‘z bilan aytganda, tadbir chin ma’noda vatanparvarlik kayfiyatiga boy ruhda o‘tdi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ijodiy uchrashuv

Kino ham san’atning bir turi, unda ham tarbiya mujassam. Kino orqali yosh avlodning ma’naviy kamolotini yuksaltirish mumkin yoki aksincha... Harbiy xizmatchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini ta’minlashda ham, vatanparvarlik ruhida ishlangan filmlarning muhim o‘rni borligini ta’kidlab o‘tish joiz.

SAN’ATKORLAR HARBIYLAR HUZURIDA



Nukus garnizoni ma’naviyat va ma’rifat markazida tashkil etilgan navbatdagi tadbirda o‘zbek kino san’atida vatanparvarlik mavzusida keng ijod qilayotgan taniqli aktyor va rejissyor, qolaversa, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zosi Hilol Nasimov boshchiligidagi bir guruh ijodkorlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv qiziqarli va ko‘tarinki ruhda kechdi. Askarlar va yoshlar harbiylarning hayoti va xizmat faoliyati bilan bog‘liq filmlar tomoshasidan so‘ng Vatanga bo‘lgan muhabbati yanada ortgani, harbiy sohada ishlash istagi jo‘sh urganini to‘lqinlanib so‘zlab berishdi.

Shu kungi suhbat chin ma’noda tomoshabinlarga ma’naviy kuch berib, dunyoqarashini boyitishda xizmat qildi. Tadbirdan so‘ng mehmonlar Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug tarixi muzeyi bilan yaqindan tanishdi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

EZGU AMALLAR IFODASI

Yoshlar qalbida ona Vatanga sadoqat, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirishda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kitob tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash kabi ezgu amallar tashkilotimiz faoliyatida ham o‘z ifodasini topmoqda, – deydi O‘STK boshlig‘i Sharif Temirov. – Bu borada klubimiz tumandagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Biz belgilangan reja asosida ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlarini muntazam ravishda tashkil etmoqdamiz. Maqsadimiz – yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash.

Bundan tashqari, sportning texnik va amaliy turlarini aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida rivojlantirish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tumanimiz yoshlari viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Ayni paytda yoshlarimiz sportning texnik va amaliy turlaridan “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Karting”, “Radioaloqa”, hamda “Avtoralli” kabi muhim turlari bilan shug‘ullanmoqda.

Shu kunlarda tashkilotda malakali haydovchilar tayyorlash borasida ham ko‘pgina ishlar qilinmoqda. Chunonchi, “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun klub yetarli o‘quv-moddiy bazaga ega. Barcha kerakli zamonaviy innovatsion jihozlar hamda avtomototransport vositalari bilan ta’minlangan. O‘z navbatida, bunday imkoniyatlar esa bo‘lajak haydovchilar malakasini oshirishda har tomonlama qo‘l kelmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA


BUYUK IXTIROLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun

Maktab qanday paydo bo‘lgan?

Bolajonlar ilm maskani qanday paydo bo‘lgani haqida bilasizmi? Quyida berilgan ma’lumotlar siz uchun qiziq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.





Ilk maktablar Qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan, ularning ma’nosi butunlay boshqacha edi, ya’ni dam olishni anglatardi. U yerda hozirgidek dars berilmas, odamlar turli yumushlardan bo‘sh vaqtlarida yig‘ilib, falsafiy suhbatlar olib borishar edi. Yig‘ilishlarni yoshi ulug‘, tajribali va dono kishilar olib borgan. Sekin-asta bu faylasuflarning doimiy o‘quvchilari paydo bo‘la boshlagan.

Birinchi bo‘lib, ta’lim olish jarayonini yo‘lga qo‘ygan inson buyuk yunon faylasufi Platon edi. U tashkil qilgan ilk maktab nomi “akademiya” deb yuritilgan. U yerda o‘qish muddati 3-4 yilni tashkil qilgan.

Qadimgi maktablar odatda, harbiylar mashq qiladigan yoki yig‘inlar o‘tkaziladigan maydonchalarda joylashgan. Ushbu maydonchalar gimnaziyalar deb yuritilgan. Keyinroq Aristotel o‘z maktabini yaratdi va uni litsey deb atadi.

Aslida bu ikki maktabning hech biri zamonaviy ta’lim muassasalariga o‘xshamagan. U yerda ko‘proq munozaralar tashkil etilgan, vaqti-vaqti bilan o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazilgan, ularga ma’ruzalar o‘qilgan. Vaqt o‘tishi bilan yunonlar bolalarga grammatikani o‘qitish kerakligini tushunishgan va maxsus grammatika maktablarini ocha boshlagan. Keyinchalik rimliklar yunonlarning ta’lim tizimini o‘zlashtirib, mukammallashtirishga harakat qilishgan. Rim maktablari zamonaviy maktablarga o‘xshash bo‘lgan.

Bilasizmi, bolajonlar, hozirda siz ba’zida maktabga borishni istamaganingiz kabi o‘sha davrda ham ayrim o‘quvchilar erinchoqlik qilishar ekan. Chunki maktabga borish bu barvaqt uyg‘onish, murakkab topshiriqlarni bajarish, chet tilni o‘rganish va ma’lum tartib-qoidalarga amal qilish degani edi. Dangasa va itoatsizlarni xivchin bilan savalaganlar.

O‘sha davrlarda Fransiyadagi maktablar litsey, Germaniyada gimnaziya, Shotlandiyada esa akademiya deb nomlangan. E’tibor berdingizmi, bolajonlar, bu uch nom Platon va Aristotel davridan beri saqlanib qolgan ekan.

O‘zbekistonda esa ilk maktab 1901-yili Toshkentda o‘zbek ma’rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan. Munavvarqori ilk jadid maktabini o‘z uyida – Shayxontohur tumanidagi Darxon mahallasida ochgan. “Yangi usul” maktablarida bolalarga ona tilida xat-savod o‘rgatishgan. Samarqandda ham Abduqodir Shakuriy tomonidan “Yangi usul” maktablari tashkil etilgan. Keyinchalik Buxoro, Andijon, Namangan, Xiva xonligida ham ziyo tarqatuvchi shunday dargohlar ochilgan.

Dono qiz

(o‘zbek xalq ertagi)

Qadim zamonda bir podshoh o‘tgan ekan. Kunlardan bir kun podshoh o‘z eliga ikkita savol beribdi.

– Shirindan shirin nima? Achchiqdan achchiq nima?

Podshoh bu savolni yechish uchun odamlarga qirq kun muhlat beribdi: “Agar hech kim savolni yecha olmasa, yurtga qirg‘in solaman”, debdi. Podshoh zulmidan qo‘rqqan xalq boshqa tomonlarga qarab qochib keta boshlabdi.

Shu mamlakatda bir kambag‘al chol qizi bilan kun kechirar ekan. Ko‘chadagi shovqinlarni eshitib, qiz tashqariga chiqib qarasa, odamlar to‘p-to‘p bo‘lib qochib ketyapti. Qiz ulardan nima sababdan qochayotganliklarini so‘rabdi. “Podshoh butun xalqqa savol bergan. Savolini yechish uchun qirq kun muhlat qo‘ygan. Agarda hech kim yecholmasa, yurtga qirg‘in soladi”.

Shunda qiz otasini chaqirib, unga:

– Otajon, siz podshohning oldiga borib, savolini yeching va yurtni zulmdan qutqaring! Birinchi savolga: shirindan shirin – bola shirin. Ikkinchi savolga: achchiqdan achchiq – o‘lim achchiq, deng, debdi.

Chol podshohning oldiga borib, savoliga javob beribdi. Podshoh choldan kim aytganini so‘rabdi. Chol o‘z qizi aytganini ma’lum qilibdi. Qizning donoligini yana sinash uchun podshoh odamlariga: “Borib ayt, o‘sha qiz ho‘kizni bolalatib bersin”, debdi. Bir qancha kundan keyin podshoh odamlari qizning oldiga kelib: “Ho‘kizni bolalatdingmi?”deb so‘rabdilar. Shunda qiz: “Dadam hammomga tuqqani ketgan, kelsa javobini aytaman”, debdi. Kelgan odamlar qah-qah urib kulishib: “Hech vaqt erkak kishi ham tug‘adimi?”deganda, qiz: “Ho‘kiz bolalaganda, nima uchun erkak kishi tug‘masin?”deb odamlarni mot qilibdi.

Bu gapni odamlar podshohga aytib beribdilar. Podshoh qizning aqliga qoyil qolibdi va qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha berib, unga uylanibdi.

Kunlarning birida podshoh ovga ketibdi. Darvozaning oldida odamlarning janjallashayotgan shovqini qizning qulog‘iga yetibdi. Qarasa, ikkita qo‘ychivon mojaro qilib turgan ekan. Shunda qiz ulardan janjalning sababini so‘rabdi. Har ikkisining ham tug‘adigan qo‘yi bor ekan. Kechqurun bittasining qo‘yi tug‘ib, ikkinchi qo‘yning tagiga yotib olibdi. Qiz ikkovining mojarosini to‘xtatib turganda podshoh kelib qolibdi. Xotinining ko‘chaga chiqib turganini ko‘rib, g‘azablanibdi va saroydan



xohlagan narsasini olib otasining oldiga jo‘nashini aytibdi. Shunda qiz ketmasdan turib, podshoh bilan oxirgi marta o‘tirish qilib, ziyofat berishni so‘rabdi. Podshoh rozi bo‘libdi.

Qiz xilma-xil noz-u ne’matlarni podshohning oldiga qo‘yib, rosa ichiribdi. Shunda podshoh mast bo‘lib, yotib qolibdi. Qiz soyabon aravaga podshohni yotqizib, aravakashga bozorlarni aylantirib yurishni aytibdi. Bir vaqt podshoh ko‘zini ochib qarasa, xotini bilan aravada bozorlarni aylanib yurgan emish. Shunda podshoh xotinidan:

– Nima uchun meni bunday qilib olib yuribsan? – deb so‘rasa, u shunday debdi:

– Ey podshohim, o‘zingiz uydan xohlagan narsangni olib, otangnikiga ket, dedingiz. Uy ichidan xohlaganim siz edingiz, endi uyga olib ketyapman, – debdi.

Podshoh qizning donoligiga qoyil qolib, u bilan yana turmush kechiravergan ekan.

Sahifani Zebo SARIYEVA tayyorladi.

HARBIYLAR “ZAKOVAT”DA BELLASHDI

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari qo‘mondonligi tasarrufidagi harbiy qism muassasalarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yinlarining ikkinchi bosqichi o‘tkazildi.



Muallif suratga olgan

Harbiy xizmatchilarning bilim darajasi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek ular o‘rtasida mustahkam hamkorlik va jamoaviy ruhni rivojlantirish maqsadida o‘tkazilgan ushbu musobaqada to‘rtta jamoa o‘zaro bellashdi.

“Zakovat” intellektual o‘yinlari – bu nafaqat bilimni sinovdan o‘tkazish, balki harbiy xizmatchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim faoliyat hisoblanadi. Shu boisdan ham keyingi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida bu o‘yin doimiy ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Yangi bilimlarga boy bo‘lgan bu galgi bellashuvda ishtirokchilar turli mavzudagi mantiqiy savollarga javob berish orqali o‘zlarining bilim darajasini sinovdan o‘tkazdi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, “Samo lochinlari” jamoasi mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ikkinchi o‘rin “Yuksalish”, uchinchi o‘rin “Samo posbonlari” jamoalariga nasib etdi.

G‘oliblar nafaqat bilimi, balki o‘yinlarda ko‘rsatgan jamoaviy hamkorligi va bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmati uchun ham e’tirof etildi.

Albatta, bu kabi tadbirlar, shubhasiz harbiy xizmatchilarni ko‘proq kitob o‘qishga, doimiy ravishda bilimini oshirishga, shu bilan birga ular o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlab, oqibatli bo‘lishga undaydi.

Ro‘ziqul OCHILOV,
“Vatanparvar”



@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5865
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 970 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya